2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 226 (1825), 2026-yil 31-oktabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ANQARA SAMMITI: TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI O‘ZARO ISHONCH VA AMALIY SHERIKLIK MAYDONIGA AYLANAYOTGAN MAKON

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan 29-30-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 30-oktabr kuni Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining 13-sammitida ishtirok etdi.

“Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jayxun Bayramov hamda Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Sammit ishtirokchilari kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qilib, a’zo davlatlar o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish istiqbollarini ko‘rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqining avvalida mazkur yig‘ilish buyuk sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan Anqarada yuksak saviyada tashkil etilgani uchun Turkiya Prezidentiga minnatdorlik bildirdi.

Shuningdek, tadbir arafasida so‘lim “Beshtepa” bog‘ida davlatlarimizning milliy-madaniy majmuasi ochilishi qardosh xalqlarning mushtarak merosini asrab-avaylashda muhim qadam bo‘lgani va bu ramziy yodgorlik turkiy dunyo birligining yorqin timsoliga aylanishi qayd etildi.

Prezidentimiz bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi tubdan o‘zgarib, geosiyosiy raqobat keskinlashayotganini, turkiy dunyo atrofidagi mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyatlar xavfsizlik va taraqqiyot istiqbollariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidladi.

Shu bois, Turkiy davlatlar tashkilotini o‘zaro ishonch va amaliy sheriklik maydoni sifatida yanada jipslashtirish zarurligiga e’tibor qaratdi.

— Barchamiz ushbu ezgu yo‘lda yakdilmiz va o‘z kuch-g‘ayratimizni turkiy birdamlik uchun safarbar etishga tayyormiz, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Davlatimiz rahbari turkiy davlatlar o‘rtasida hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish yuzasidan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Tashkilot doirasida dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan muntazam siyosiy maslahatlar o‘tkazish, yondashuv va sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhim. Shu maqsadda uchinchi mamlakatlar bilan “Turkiy davlatlar tashkiloti plyus” formatidagi hamkorlikni sohaviy vazirlar uchrashuvlaridan boshlash taklif etildi.

— Ushbu muloqotlar savdo, transport, investitsiya va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda aniq qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilishi lozim, — deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Yuzta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab oluvchi, jumladan, nodir minerallarni qayta ishlash va “yashil” energetika uskunalarini mahalliylashtirishga qaratilgan “Turkiy dunyo — 100” dasturini qabul qilish taklif qilindi. Ushbu loyihalarga Turkiy investitsiya jamg‘armasi va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish uchun “Tijorat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi ko‘p tomonlama shartnoma hamda huquqiy yordam so‘rovlari va hujjatlarni elektron almashishga mo‘ljallangan raqamli platformani tashkil etish tashabbusi ham ilgari surildi.

Global ta’minot zanjirlari o‘zgarayotgan hozirgi sharoitda turkiy davlatlarning geografik o‘rni va tranzit imkoniyatlari tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O‘rta koridorni yaxlit iqtisodiy tizimga aylantirish maqsadida “Turkiy davlatlar logistika komplekslari tarmog‘i”ni tashkil etish va birgalikda boshqarish taklif qilindi. Bu xalqaro yuk tashish va logistikada davlatlarimizning ishtirokini kengaytirish hamda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish imkonini beradi.

Turizm salohiyatini kengaytirish uchun esa “Turkiy turizm alyansi”ni tuzish, shuningdek, aholining o‘zaro safarlarini soddalashtirish va ID-kartalar asosida safar qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi ko‘p tomonlama bitim ishlab chiqish taklif etildi.

Yurtimizda xorijlik yoshlar uchun ta’sis etilgan “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” doirasida turkiy davlatlar vakillariga har yili ta’lim grantlari ajratilishi bildirildi.

Shuningdek, 2027-yilni “Tabiatni asrash yili” deb e’lon qilish tashabbusi qo‘llab-quvvatlangani uchun minnatdorlik izhor qilindi hamda O‘zbekiston taklifi bilan ta’sis etilgan buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, elchi Dyusen Kaseinovga topshirilgani mamnuniyat bilan e’tirof etildi.

Butun umrini turkiy til ravnaqiga bag‘ishlagan hazrat Alisher Navoiy “Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz”, deb ta’kidlagan edi. Bugungi sammit shioridan kelib chiqib, barcha turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan va tillarimizdagi mushtarak so‘zlarni jamlaydigan “Umumturkiy so‘zlar lug‘ati”ni yaratish tashabbusi ilgari surildi.

— Ishonchim komilki, bugungi Anqara sammiti olijanob maqsadimiz, birdamlik g‘oyamiz va ulug‘vor rejalarimizga erishish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi. Zero, barchamizning orzu-istaklarimiz va intilishlarimiz mushtarak. Biz bir bo‘lsak, yanada qudratlimiz. Hamjihat bo‘lsak, yanada yuksak marralarga albatta erishamiz, — dedi davlatimiz rahbari o‘z nutqi yakunida.

Tadbirda tashkilotning yangi Bosh kotibi lavozimiga O‘zbekiston vakili Mirvohid Azimov nomzodi qo‘llab-quvvatlangani, shuningdek, navbatdagi sammit kelgusi yili O‘zbekistonda o‘tkazilishi ma’lum qilindi.

Yakunda Anqara deklaratsiyasi hamda tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi Oliylari!

Hurmatli davlatlar va delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Siz, azizlar bilan buyuk sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan go‘zal Anqara shahrida diydorlashib turganimdan g‘oyat mamnunman.

Qadrli birodarim Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi Oliylarini va butun turk xalqini mamlakatning qutlug‘ bayrami — Respublika kuni bilan qizg‘in tabriklayman.

Qardosh turk xalqiga tinchlik-omonlik, farovonlik va muvaffaqiyatlar tilayman.

“Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida o‘tayotgan sammitimizni yuksak saviyada tashkil etgani va samimiy mehmondo‘stligi uchun hurmatli Turkiya Prezidentiga alohida minnatdorlik bildiraman.

Sammit arafasida so‘lim “Beshtepa” bog‘ida davlatlarimizning milliy-madaniy majmuasi ochilgani xalqlarimizning mushtarak merosini asrab-avaylash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Ishonchim komilki, ushbu ramziy yodgorlik turkiy dunyo birligining yorqin timsoliga aylanadi.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugun xalqaro munosabatlar tizimi tubdan o‘zgarmoqda, geosiyosiy raqobat keskinlashmoqda. Turkiy dunyo atrofidagi mintaqalarda davom etayotgan qurolli mojaro va ziddiyatlar nafaqat xavfsizlikka, balki savdo-iqtisodiy, transport aloqalari va taraqqiyot istiqbollariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Boy tabiiy resurslar va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan mintaqada ta’sirchan global taraqqiyot markaziga aylanib borayotgan Turkiy davlatlar tashkilotini biz o‘zaro ishonch va amaliy sheriklik maydoni sifatida ko‘ramiz.

Biz strategik maqsadlarimiz atrofida yanada jipslashib, manfaatlarimizni xalqaro maydonda birgalikda ilgari surishimiz lozim. Barchamiz ushbu ezgu yo‘lda yakdilmiz va o‘z kuch-g‘ayratimizni turkiy birdamlik uchun safarbar etishga tayyormiz.

Qadrli do‘stlar!

Tashkilotimiz doirasida dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan muntazam siyosiy maslahatlar o‘tkazish, yondashuv va sa’y-harakatlarimizni muvofiqlashtirish muhim deb hisoblaymiz.

Tashkilotning xalqaro maydondagi nufuzi va obro‘-e’tibori uning tashqi sheriklar bilan ochiq va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantira olish salohiyatiga ham bog‘liqdir. Shu maqsadda uchinchi mamlakatlar bilan “Turkiy davlatlar tashkiloti plyus” formatidagi hamkorlikni sohaviy vazirlar uchrashuvlaridan boshlashni taklif etaman. Ushbu muloqotlar savdo, transport, investitsiya va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda aniq qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilishi lozim.

Shu bilan birga, texnologik hamkorlikni chuqurlashtirish, jahon bozoriga birgalikda chiqish imkonini beradigan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishimiz zarur.

Amaliy qadam sifatida “Turkiy dunyo — 100”, ya’ni yuzta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab oladigan dastur qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu loyihalarga Turkiy investitsiya jamg‘armasi va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini yo‘naltirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Nodir va strategik minerallarni to‘liq qayta ishlash, “yashil” energetika uskunalari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, yuqori daromadli mahsulotlar tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy aloqalarimiz jadal rivojlanayotgani tufayli tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha umumiy mexanizmlarga ehtiyoj ortmoqda. Shu maqsadda “Tijorat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi ko‘p tomonlama shartnoma ishlab chiqish lozim. Ushbu hujjat sud qarorlarini o‘zaro tan olish va ijro etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Ayni paytda ushbu yo‘nalishda vakolatli organlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish tarafdorimiz. Bu borada huquqiy yordam so‘rovlari va hujjatlarni elektron almashishga mo‘ljallangan raqamli platforma tashkil etishni muhim deb hisoblaymiz.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON: SHIDDATLI EVRILISH VA REAL NATIJALAR MANZILI

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi ijodiy jamoasining yangi loyihasi davom etadi. Tarixiy qudrat va bugungi shiddatli islohotlar uyg‘unligida yanada yuksalayotgan Buxoro viloyati loyihamizning navbatdagi manzili bo‘ldi.

Ma’lumki, **“Yangi O‘zbekiston: shiddatli evrilish va real natijalar manzili!”** loyihasi orqali mamlakatimiz bo‘ylab amalga oshirilayotgan shiddatli o‘zgarishlar, qisqa vaqtda erishilayotgan ulkan tarixiy natijalar mohiyati xolis tahlil orqali ochib berilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi loyiha maqsadiga muvofiq, bu safar Buxoro viloyatidagi o‘zgarishlar, shaharu qishloqlarning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishdi. Buxoroliklar bilan suhbatlashib, ularning dil so‘zlariga quloq tutdi.

Shu asosda real hayotiy hikoyalar orqali islohotlar ko‘lamini ochib berishga harakat qildik.

Tahririyat ijodiy jamoasining ishbilarmon, uddaburon va mehmondo‘st buxoroliklar bilan uchrashuvlari yorqin taassurotlar hamda esda qolarli voqealarga boy kechdi. Shular asosida tayyorlangan tahliliy maqolalar to‘plami Buxoro viloyatida kechayotgan o‘zgarishlarning real sur’ati va ko‘lamini aniq va atroflicha anglashga xizmat qiladi deb umid qilamiz.

Tahririyat

KO‘HNA BUXORONING ZAMONAVIY IQTISODIY MAZMUN BILAN BOYIB BORAYOTGAN MAVQEYI

Buxoro viloyati hokimi Botir ZARIPOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Buxoro — mamlakatimizning tarixiy xotirasi, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan zamin. Asrlar davomida Buyuk ipak yo‘lining muhim chorrahalaridan biri bo‘lgan bu hududda savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va shaharsozlik madaniyati ham o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Shu ma’noda, bugungi Buxoro haqida so‘z yuritganda uning boy o‘tmishi bilan bir qatorda, zamonaviy iqtisodiy qiyofasi, mavjud resurslardan qanday foydalanilayotgani va kelgusi taraqqiyot yo‘nalishlariga ham nazar tashlash zarur.

Shu bois, suhbatimiz viloyatning bugungi iqtisodiy imkoniyatlari, sanoat va investitsiya salohiyati, qishloq xo‘jaligi va suv masalasi, energetika, turizm va logistika, shahar infratuzilmasi, aholi hayotidagi o‘zgarishlar hamda qadimiy Buxoroning kelajakdagi qiyofasi xususida bo‘ldi.

— Botir Komilovich, Buxoro haqida gap ketganda ko‘pincha uning boy tarixi va turizm salohiyati tilga olinadi. Sizningcha, viloyatning hali to‘liq ochilmagan eng katta iqtisodiy imkoniyati nimada?

— Buxoroning iqtisodiy imkoniyatlarini birgina soha bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Viloyatda turizm, sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalarining har biri uchun katta salohiyat bor. Menimcha, eng muhim vazifa — shu imkoniyatlarni alohida-alohida rivojlantirishdan ko‘ra, ularni o‘zaro bog‘langan yagona iqtisodiy zanjirga aylantirish.

Masalan, Buxoro turizmi uzoq yillar davomida asosan tarixiy shahar va ziyorat yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda rivojlandi. Albatta, bu bizning eng katta ustunliklarimizdan biri. Shu bilan birga, bugun turizm imkoniyatlarini Buxoro shahrining tarixiy markazi doirasida ko‘rishning o‘zi yetarli emas. Viloyatning cho‘l hududlari, To‘dako‘l va Qorako‘l suv havzalari ekoturizm uchun, tumanlardagi o‘ziga xos taomlar, dehqonchilik va qishloq turmushi agro va gastronomik turizm uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Buxoroga kelgan sayyoh Labi hovuz yoki arkni tomosha qilib ketish bilan cheklanmay, viloyatning boshqa hududlariga ham borishi, mahalliy mahsulot va xizmatlardan foydalanishi, hunarmandlar bilan bevosita tanishishi muhim. Sayyohning viloyatda qolish muddati uzaysa, uning kelishi iqtisodiyotning ko‘proq tarmoqlariga ta’sir qiladi.

Bu yerda qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoati imkoniyati ham keng. Buxoroda meva-sabzavotchilik, uzumchilik, chorvachilik, qorako‘lchilik kabi an’anaviy yo‘nalishlar shakllangan. Endi masala xomashyo yetishtirish bilan cheklanmay, uni viloyatning o‘zida chuqur qayta ishlash, tayyor va eksportbop mahsulotga aylantirishda.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston TDT transformatsiyasi jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanib, Tashkilot doirasidagi integratsiya jarayonlarining yetakchi ishtirokchisi va tashabbuskori sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 31-oktabr, 226-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Global ta’minot zanjirlari o‘zgarayotgan hozirgi sharoitda turkiy davlatlarning geografik o‘rni va tranzit imkoniyatlari tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro yuk tashish va logistikada davlatlarimizning ishtirokini kengaytirish hamda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish uchun O‘rta koridor va unga tutash boshqa transport yo‘laklarini yaxlit iqtisodiy tizimga aylantirishimiz zarur. Shu maqsadda “Turkiy davlatlar logistika komplekslari tarmog‘i”ni tashkil etish va uni birgalikda boshqarishni taklif etamiz.

Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solishimiz lozim. Birgina 2025-yilda davlatlarimizga 100 milliondan ziyod xorijlik sayyoh tashrif buyurdi.

Turkiy xalqlarning tarixiy shaharlari, betakror tabiati, boy madaniyati va mehmondo‘stlik an’analarini dunyoga birgalikda taqdim etish maqsadida “Turkiy turizm alyansi”ni tashkil qilish vaqti keldi.

Aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish uchun Fuqarolarning o‘zaro safarlari to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitim ishlab chiqishni taklif etamiz. Unda ID-kartalar asosida safar qilish imkoniyatlarini kengaytirish, chegaradan o‘tish va mezbon davlat hududida bo‘lish tartibini soddalashtirish masalalari aks etishi lozim.

Texnologik taraqqiyotning poydevori, avvalo, inson kapitali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yosh avloddir. Ularning ta’lim olishiga kiritilgan sarmoya uzoq muddatli hamkorligimizning mustahkam asosidir.

Yurtimizda “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” doirasida 500 nafar xorijlik talabaga grant asosida ta’lim olish imkoniyati yaratilgan. Turkiy davlatlar vakillariga har yili 200 ta ta’lim granti ajratishga tayyormiz. Qardosh mamlakatlar yoshlarini ushbu imkoniyatdan unumli foydalanishga chaqiramiz.

Fursatdan foydalanib, 2027-yilni Tashkilot doirasida “Tabiatni asrash yili”, deb e’lon qilish bo‘yicha tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun alohida tashakkur aytmoqchiman.

Keyingi yil davomida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar Antaliyada o‘tadigan COP-31 anjumani doirasida ekologiyaga mas’ul vazirlarimiz yig‘ilishida ko‘rib chiqilishiga ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Xabaringiz bor, turkiy dunyo birligiga ulkan hissa qo‘shgan insonlarni munosib rag‘batlantirish maqsadida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etgan edik.

Kecha ushbu nufuzli mukofotning Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, elchi Dyusen Kaseinovga topshirilishi ilm-fan, san’at va adabiyot yo‘nalishida izlanayotgan yoshlarimizga yangi g‘ayrat va ilhom bag‘ishlashi shubhasiz.

Butun umrini turkiy til ravnaqiga bag‘ishlagan hazrat Alisher Navoiy “Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz”, deb ta’kidlagan edilar. Bugungi sammitimiz shioridan kelib chiqib, barcha turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan va tillarimizdagi mushtarak so‘zlarni jamlaydigan “Umumturkiy so‘zlar lug‘ati”ni yaratish tashabbusini ilgari suraman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Kecha Tashkilotimizning nufuzli mukofoti — “Turkiy dunyo Oliy ordeni” bilan Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarov Janobi Oliylari taqdirlangani munosabati bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Shu o‘rinda Ozarbayjonning Tashkilotimizga raisligi davrida birodarlik rishtalarimizni mustahkamlash, aloqalarimizni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi salmoqli ishlari uchun hurmatli Ilhom Geydarovich Aliyev Janobi Oliylariga katta rahmat aytaman.

Bugun raislikni qabul qilib olayotgan Turkiya davlati iqtisodiy hamkorligimizni chuqurlashtirish, tashabbuslarimizni amaliy natijalar bilan boyitishga katta hissa qo‘shadi deb ishonaman.

Turkiya Prezidenti, hurmatli Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi Oliylariga ushbu sharafli vazifada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Shuningdek, Tashkilotimizning navbatdagi sammitini kelgusi yili O‘zbekistonda yuqori darajada o‘tkazishga tayyor ekanimizni ma’lum qilaman.

Kun tartibidagi yana bir masalaga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Oldimizga qo‘yilgan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda a’zo davlatlarning hamjihatligi va Kotibiyatning samarali faoliyati ayniqsa muhimdir. O‘tgan davrda Bosh kotib sifatida sermahsul mehnat qilib, Tashkilotimiz nufuzini har tomonlama oshirishga munosib hissa qo‘shgan Kubanichbek Omuraliyevga minnatdorlik bildiraman.

Shu bilan birga, O‘zbekiston vakili bo‘lgan Mirvohid Azimov nomzodini Bosh kotib lavozimiga qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun barchangizga tashakkur izhor etaman.

Ishonchim komil, yangi Bosh kotib Tashkilotimizning ustuvor vazifalarini amalga oshirish va hamkorligimizni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Muhtaram hamkasblar!

Bugungi Anqara sammiti olijanob maqsadimiz, birdamlik g‘oyamiz va ulug‘vor rejalarimizga erishish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Zero, barchamizning orzu-istaklarimiz va intilishlarimiz mushtarak.

Biz bir bo‘lsak, yanada qudratlimiz.

Hamjihat bo‘lsak, yanada yuksak marralarga albatta erishamiz.

Munosabat

O‘z kasbini sevgan, xalq uchun xolis xizmatga bel bog‘lagan har qanday inson aslida e’tiboru e’tirofga munosiblik uchun ishlamaydi. Biroq jamiyatning, xalqning o‘zi uni munosib baholab, mehnatlarini alohida qadrlaydi. Yurtimizda mehnati yuksak qadr topayotgan ana shunday insonlar safi yildan yilga kengayib boryapti. Xususan, tibbiyot xodimlari orasida ham.

ELNI SEVSANG, EL QADRLAYDI

Prezidentimiz farmoni bilan taqdirlangan tizim xodimlari orasida o‘zimni ko‘rib, boshim ko‘kka yetdi. Ijtimoiy himoya milliy agentligida ozmi-ko‘pmi mehnat qilib, mukofotlanish darajasida obro‘ topganimdan benihoya xursandman. Bu e’tirof ayni paytda qilayotgan tizimli ishlarimizda sobitqadam bo‘lishimiz, bor kuchimizni soha rivojiga sarflashimizga yana bir turtki bo‘ladi.

Faoliyatim nogironligi bo‘lgan insonlar bilan bog‘liq ekan, ularga munosib hayot tarzini yaratishda hissamni qo‘shishni ustuvor maqsadim sifatida o‘z oldimga qo‘yganman. Ayni paytda yurtimizda nogironlikni belgilashda fuqarolarga yengillik yaratish, inson omilini kamaytirish va korrupsion holatlarni bartaraf etish kabi ezgu ishlar ustida ishlanyapti.

> **Fuqarolar yangi tizim qanday ishlashi, nogironlikni belgilashda qaysi tashkilot qaysi bosqich uchun javob berishi, tibbiy tekshiruvlar qanday tashkil etilishi va xulosa qanday shakllantirilishi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emas. Shu sababli norozilik arizalari bilan turli tashkilotlarga murojaat qilmoqda.**

Chunonchi, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash, ular uchun zarur ijtimoiy va tibbiy xizmatlarning ochiq, tushunarli va qulay mexanizmlarini yaratish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugun odamlarda Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi (TIEK) xulosalaridan norozi bo‘lish holatlari ko‘paymoqda. Buning asosiy sabablaridan biri yangi elektron tizimda avval II guruh nogironligi olgan fuqarolarga III guruh nogironligi to‘g‘risida xulosa shakllanayotganidir.

Fuqarolar yangi tizim qanday ishlashi, nogironlikni belgilashda qaysi tashkilot qaysi bosqich uchun javob berishi, tibbiy tekshiruvlar qanday tashkil etilishi va xulosa qanday shakllantirilishi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega emas. Shu sababli norozilik arizalari bilan turli tashkilotlarga murojaat qilmoqda.

Korrupsion holatlar bo‘yicha ham e’tirozlar uchrab turibdi. Fuqarolar birovdan iltimos qilmasa ham, pul bermasa ham nogironlikni qonuniy tartibda belgilash mumkinligini bilmaydi. Yangi tizimning muhim vazifalaridan biri aynan shunday holatlarga barham berish va fuqaroning qonuniy huquqini ortiqcha aralashuvlarsiz ta’minlashdan iborat. Yangi tartibning har bir bosqichi mas’ul tashkilotlar va fuqaroning huquqlarini sodda va tushunarli shaklda yetkazishi bilan alohida ahamiyatga ega. Nogironlik masalasida fuqarolarga uydan chiqmasdan turib (my.gov.uz), ijtimoiy xodim, oilaviy shifokor yoki “Inson” markazi operatori orqali ariza kiritish imkoni yaratildi. TIEKga yo‘llanmani yashash joyidagi oilaviy shifokor elektron dastur orqali yuboradi. Endilikda nogironlikni belgilashda ortiqcha tibbiy tekshiruvlar qisqartirildi. TIEKga yo‘llash uchun yagona uzoq muddat kutish talabi bekor qilindi. Nogironlikni baholash mezonlarida yangi yondashuv joriy etildi. Inson omilini kamaytirish uchun xulosani shakllantirish raqamlashtirildi. Shuningdek, xulosalar qo‘shimcha nazoratdan o‘tkaziladi. Fuqaro jarayonning keyingi bosqichi haqida xabardor qilib boriladi. Eng ahamiyatlisi, yangi tizim faqat nogironlik guruhini belgilash bilangina cheklanmaydi. Bunda nogironlik sababi va muddati bilan birga insonning o‘zgalar parvarishiga muhtojligi, reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopedik mahsulotlarga ehtiyoji, shuningdek, tibbiy reabilitatsiya bo‘yicha tavsiyalar ham shakllanadi. Xulosadan norozi bo‘lgan fuqaro uchun qayta ko‘rib chiqish mexanizmi mavjudligi esa inson qadrining amaldagi yana bir ifodasidir.

Abdig‘ofur NARZULLAYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligining Nogironligi bo‘lgan shaxslarning funksionalligini baholash boshqarmasi bosh mutaxassisi,
“Sodiq xizmatlari uchun” medali sohibi

O‘ZBEKISTON MARKAZIY OSIYONING YEVROOSIYODAGI NUFUZINI OSHIRMOQDA

XORIJIY EKSPERTLAR PREZIDENTIMIZNING TURKIYAGA AMALIY TASHRIFI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-30-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan Turkiyada bo‘lib, Anqara shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ning 13-sammitida ishtirok etdi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazdi. Hamkorlikni mustahkamlash, savdo, transport aloqalari va energetikani rivojlantirish hamda mintaqaviy o‘zaro hamkorlikni kengaytirish sammitning asosiy mavzulari bo‘ldi.

O‘zbekiston Prezidenti yuzta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab oladigan “Turkiy dunyo — 100” dasturini qabul qilish, turkiy davlatlarning logistika tarmog‘ini yaratish, “TDT plyus” formatini rivojlantirish, tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish hamda turizm va ta’lim sohalaridagi aloqalarni kengaytirish kabi tashabbuslarni ilgari surdi.

Sammit Anqara deklaratsiyasi va hamkorlikni yanada mustahkamlashga doir qator hujjatlar qabul qilinishi bilan yakunlandi.

TDTga a’zo davlatlar rahbarlari O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Mirvohid Azimov nomzodini TDT Bosh kotibi lavozimiga bir ovozdan ma’qulladi. Shu tariqa O‘zbekiston vakili ilk bor ushbu lavozimni egalladi.

Tadbirda navbatdagi sammitni 2027-yilda O‘zbekistonda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

O‘zbekistonning TDT 13-sammitidagi ishtiroki yakunlari, ilgari surilgan muhim tashabbuslar va ularning turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashdagi ahamiyati xalqaro ekspertlar hamda yetakchi ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Laslo VASHA,
Ishtvan Secheni universiteti Mintaqaviy tadqiqotlar va biznes boshqaruvi doktorlik maktabi direktori, professor (Vengriya):

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Anqaraga tashrifidan asosiy maqsad shakllangan siyosiy munosabatlar va umumiy madaniy o‘zlikni iqtisodiy, infratuzilmaviy hamda investitsiyaviy natijalarga aylantirishdan iborat.

Bu O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi mavqeini mustahkamlash va turkiy dunyoni o‘zaro



bog‘langan yanada yaxlit iqtisodiy-siyosiy makonga aylantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslarning ahamiyati mamlakat manfaatlari doirasidan ancha keng. Ular TDTning asosan siyosiy va madaniy hamkorlik platformasidan amaliy faoliyat yurituvchi mintaqaviy tashkilotga bosqichma-bosqich aylanishiga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy sheriklik imkoniyatlari faqat savdo hajmini oshirishda emas, balki qo‘shma ishlab chiqarish quvvati va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishdadir. Turkiyaning sanoat tajribasi, texnologik imkoniyati va xalqaro bozorlar bilan aloqasi O‘zbekistonda rivojlanayotgan qayta ishlash sanoatini yanada kengaytiradi.

Bu Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa turkiy davlatlar kompaniyalari ishtirokida mintaqaviy hamda Yevropa bozorlariga mo‘ljallangan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollarini yaratadi.

Transport sohasini rivojlantirish — yana bir strategik ustuvor yo‘nalish. O‘zbekiston uchun xalqaro transport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish nafaqat tijorat vazifasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy suverenitet masalasidir. Markaziy Osiyoni Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya va Yevropa bilan bog‘lovchi O‘rta koridor xalqaro yuk tashishda tobora dolzarb yo‘nalishga aylanmoqda.

Bu borada faqat infratuzilmaning o‘zi yetarli emas. Bojxona tartib-taomillarini uyg‘unlashtirish, hujjatlarni raqamlashtirish, tranzit tariflarining oldindan prognoz qilinishi va chegara nazoratini samarali tashkil etish zarur. “E-Permit” tizimi doirasidagi hamkorlik TDTning ushbu sohada amaliy yechimlarni ta’minlashga qodirligini allaqachon namoyon etmoqda.

Energetika sohasidagi hamkorlikda katta istiqbollar mavjud. O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish rejalari hamda Qozog‘iston va Ozarbayjon ishtirokida ekologik toza elektr energiyasini uzatish bo‘yicha tashabbuslar Markaziy Osiyoning energetika resurslarini Yevropa bilan bog‘lash imkoniyatlarini ochmoqda. Turkiya ushbu loyihalarni amalga oshirishda muhim geografik va infratuzilmaviy o‘rin tutishi mumkin.

Yevropa, ayniqsa, Vengriya nuqtai nazaridan qaraganda, TDTni Yevropa bilan hamkorlikka muqobil tuzilma yoki unga raqobatchi sifatida baholamaslik lozim. Aksincha, u transport o‘zaro bog‘liqligini yaxshilash, ta’minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish va Yevropa bilan Markaziy Osiyo o‘rtasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga qodir bo‘lgan qo‘shimcha mintaqaviy mexanizmdir.

Shuningdek, madaniy diplomatiya, ta’lim almashinuvi, ilmiy hamkorlik va akademik mobillik uzoq muddatli mintaqaviy integratsiyaning mustahkam asosiga aylanishi mumkin. Bu yo‘nalishlar Yevropa universitetlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Tashrifdan kutilayotgan natijalarga kelsak, u O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlaydi, transport, energetika va investitsiyalar sohalaridagi hamkorlikka yangi sur’at bag‘ishlaydi. Ko‘p tomonlama kelishuvlar va vositalar, jumladan, Turkiy investitsiya jamg‘armasi hamda raqamli savdo mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Keng geosiyosiy nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonning tashkilot faoliyatidagi faol ishtiroki mintaqaviy kun tartibini shakllantirishda Markaziy Osiyoning mustaqil rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Toshkent Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari, Kaspiy orti yo‘nalishi va Yevropaning iqtisodiy imkoniyatlari o‘rtasida muhim bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanishi mumkin.

Anqaradagi uchrashuvning strategik ahamiyati siyosiy hamjihatlikdan yanada chuqur amaliy integratsiyaga o‘tish imkoniyati bilan belgilanadi.

O‘zbekiston uchun bu iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish, transport o‘zaro bog‘liqligini yaxshilash va mintaqadagi mavqeini mustahkamlashni anglatadi. TDT uchun esa bu ulkan iqtisodiy va geografik salohiyatni barcha a’zo davlat uchun sezilarli afzalliklarga aylantirish imkoniyatidir.

Axmet AKALIN,
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Madaniyat instituti direktori yordamchisi (Eron):



— Bugun TDT barcha ustuvor yo‘nalishda amaliy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotgan samarali xalqaro tuzilmaga aylandi. Tashkilotga a’zo davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti qariyb 2 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. 2026-yil oxiriga borib, turkiy davlatlar iqtisodiyotining umumiy hajmi 3 trillion dollardan oshishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning ushbu tashkilotda ishtirok etishi nafaqat iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam, balki turkiy dunyoning umumiy madaniy o‘zligini saqlash va rivojlantirishga qo‘shilgan salmoqli hissa bo‘ldi.

2022-2023-yillarda O‘zbekiston TDTga raislik qildi. Samarqand sammitida tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning yangi yo‘nalish va tarmoqlari belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar, tashabbuslar va loyihalarning amalga oshirilishi bunga zamin yaratdi.

O‘zbekiston TDT transformatsiyasi jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanib, Tashkilot doirasidagi integratsiya jarayonlarining yetakchi ishtirokchisi va tashabbuskori sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda.

TDT faoliyatini kengaytirishda tashkilot doirasida yangi qo‘shma ishlab chiqarish korxonalari va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, oddiy xomashyo eksportidan mintaqaviy kooperatsiya asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, savdo, ruxsatnomalarni rasmiylashtirish va logistikani tashkil etish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish ham TDT nufuzini yuksaltiradi.

Anqaradagi sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev sheriklik aloqalarini yanada kengaytirish va jadallashtirish taklifini ilgari surdi. Shuningdek, u transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash va xalqaro tranzit yo‘laklarini rivojlantirish borasida kelishilgan siyosat yuritish zarurligini ta’kidladi.

O‘zbekiston yetakchisining TDT sammitidagi ishtiroki mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surishda navbatdagi qadam bo‘ladi.

Mamlakatning faol va konstruktiv tashqi siyosati Turkiy davlatlar tashkilotining nufuzini oshirish, qardosh xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va kelajakka umumiy qarashga asoslangan munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Aleksandr VOROBYOV,
Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi, Jamoatchilik diplomatiyasi va jahon siyosatini tahlil qilish markazi direktori:

— O‘zbekiston Prezidentining Anqaraga tashrifi muhim voqeadir. Zero, Turkiya va TDTga a’zo boshqa davlatlar bilan keng qamrovli aloqalarni mustahkamlash Toshkent uchun strategik ahamiyatga ega.



Bu, bir tomondan, O‘zbekistonning g‘arbiy yo‘nalishda (Janubiy Kavkaz, Turkiya, Janubi-sharqiy Yevropa) transport-logistika bog‘liqligini rivojlantirishdan manfaatdorligi, ikkinchi tomondan esa sanoat va qishloq xo‘jaligining yirik sarmoya va ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlariga investitsiya hamda texnologiyalarni jalb etish, gumanitar yo‘nalishdagi hamkorlikni kengaytirish zarurati bilan bog‘liq.

TDT yetakchisi sifatida Turkiya uchun ham, tashkilotning boshqa a’zolari uchun ham bugun O‘zbekiston salmoqli iqtisodiy, demografik va madaniy salohiyatga ega tayanch davlat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

TDTning rivojlanish strategiyasi va O‘zbekistonning bir vaqtning o‘zida bir nechta — shimoliy (Rossiya), janubiy (Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston) hamda sharqiy (XXR) yo‘nalishlarda puxta o‘ylangan ko‘p vektorli siyosat yuritishga intilishi bir-birini mukammal to‘ldiradi.

O‘zbekistonning TDT, jumladan, Turkiya bilan aloqalari mustahkamlanishi Yevroosiyoning global siyosiy va iqtisodiy poydevorini shakllantirishga salmoqli va ijobiy hissa qo‘shib, barqaror hamda izchil rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi.

TDT doirasidagi muzokaralar yakuni O‘zbekistonning tashkilot bilan bir vaqtning o‘zida bir nechta soha — logistika, savdo, sanoat kooperatsiyasi va madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi hamkorligiga yangi sur’at bag‘ishlaydi.

“Dunyo” AA

YANGI O‘ZBEKISTON

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

DAVR NAFASI

3

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 31-oktabr, 226-son

KO‘HNA BUXORONING ZAMONAVIY IQTISODIY MAZMUN BILAN BOYIB BORAYOTGAN MAVQEYI

Buxoro viloyati hokimi Botir ZARIPOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Boshlanishi 1-betda

Qorako‘l terisi va juni, paxta, meva-sabzavot, uzum va boshqa mahsulotlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat zanjirini uzaytirish viloyat iqtisodiyoti uchun yangi daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi. 2026-2028-yillarda agrobiznes, turizm, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida umumiy qiymati 11,5 milliard dollarga teng yirik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgani ham bu imkoniyatning ko‘lamini ko‘rsatadi.

Buxoroning yana bir muhim ustunligi — energetika salohiyati. Viloyatning tabiiy-iqlim sharoiti quyosh va shamol energetikasini keng rivojlantirish imkonini beradi. Hozir umumiy quvvati 5 gigavatt bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari amalga oshirilmoqda. Shundan umumiy quvvati 2 gigavatt bo‘lgan beshta loyiha ishga tushirildi. Barqaror energiya ta’minoti yangi sanoat quvvatlarini joylashtirish, qayta ishlashni kengaytirish va investorlar uchun qulay muhit yaratishda ham muhim omil bo‘ladi.

Hunarmandchilik ham katta iqtisodiy imkoniyatga ega. Buxoro zardo‘zligi, zargarligi va boshqa an’anaviy hunarmandchilik maktablarini zamonaviy dizayn, savdo va eksport bilan bog‘lasak, ularning bozori ancha kengayadi. Bu sohani turizm bilan uyg‘un rivojlantirish esa mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad va yangi ish o‘rinlari ochish imkonini beradi.

Bugungi ko‘rsatkichlar bunday yondashuv uchun iqtisodiy asos borligini ko‘rsatmoqda. 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 1,9 milliard dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Eksport qiluvchilar soni 200 taga yetdi. Buxoroda ishlab chiqarilgan mahsulotlar 37 mamlakatga yetkazib berildi. Endi asosiy masala investitsiya va eksport hajmining o‘zi bilan cheklanib qolmay, ularning viloyatda qancha qo‘shilgan qiymat, yangi ish o‘rni va barqaror daromad yaratayotganiga e’tibor qaratishda.

— Zamonaviy qurilish, mehmonxonalar va biznes infratuzilmasi bilan Buxoroning tarixiy qiyofasini qanday uyg‘unlashtirish mumkin?

— Buxoroda bu masalaga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Chunki shaharning qadri faqat tarixiy obidalar bilan o‘lchanmaydi. Ko‘chalar, mahallalar, hovlilar, an’anaviy me’morchilik va ularni birlashtirib turgan yaxlit shahar muhiti ham Buxoroning tarixiy qiyofasini belgilaydi. Shu bois, biz uchun asosiy tamoyil — eski shaharni zamonaviy qurilishlarga moslashtirish emas, yangi qurilish va infratuzilmani tarixiy muhit talablariga muvofiq rivojlantirish.

Bu, birinchi navbatda, tarixiy markazdagi har qanday qurilish va rekonstruksiya ishlariga aniq talablar asosida yondashishni taqozo etadi. Eski shaharda baland, yirik hajmli yoki tarixiy panoramaga ta’sir ko‘rsatadigan binolar paydo bo‘lishi Buxoroning asrlar davomida shakllangan me’moriy muhitiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, tarixiy markaz va unga tutash hududlarda binolarning balandligi, hajmi, rangi, qurilish materiallari, ko‘chaga nisbatan joylashuvi kabi jihatlar hisobga olinishi zarur. Yangi obyektlar zamonaviy bo‘lishi mumkin. Faqat ular shaharning mavjud me’moriy qiyofasi bilan uyg‘unlashishi kerak.

Albatta, Buxoroga yangi mehmonxonalar, biznes markazlari va transport infratuzilmasi ham kerak. Masalaning yechimi ularni tarixiy markazga joylashtirishda emas, shaharning yangi rivojlanayotgan hududlarida zamonaviy biznes infratuzilmasini shakllantirishda. Katta obyektlarni tarixiy yadrodan tashqarida rivojlantirish orqali eski shaharga tushadigan qurilish va transport bosimini kamaytirish mumkin.

Transport masalasi ham tarixiy muhitni asrash bilan bevosita bog‘liq. Eski shaharda avtomobil harakatini tartibga solish, piyodalar uchun qulay hududlarni kengaytirish, sayyohlar harakatida ixcham elektr transport vositalaridan foydalanish, avtoturargohlarni tarixiy markazdan tashqarida yoki muhitga ta’siri kam bo‘lgan shaklda tashkil etish muhim. Bu bir tomondan tarixiy obidalarga tushadigan ekologik bosimni kamaytirsa, ikkinchi tomondan sayyohlar va mahalliy aholi uchun qulay shahar muhitini yaratadi.

Zamonaviylikni faqat yangi bino qurish bilan baholash ham to‘g‘ri emas. Buxoroning tarixiy markazida yuqori tezlikdagi internet, elektron navigatsiya, QR-kodlar va audiogidlar, mehmonxona va xizmatlarni raqamli bronlash tizimlari kabi imkoniyatlarni kengaytirish mumkin. Bunday texnologiyalar shaharning tashqi tarixiy qiyofasiga daxl qilmagan holda xizmatlar sifatini oshirishga sabab bo‘ladi.

Maqsadimiz Buxoroni muzey-shaharga aylantirib qo‘yish ham, zamonaviylashtirish bahonasida tarixiy qiyofasini yo‘qotish ham emas. Tarixiy shahar yashashi, unda tadbirkorlik, turizm va xizmatlar rivojlanishi kerak. Shu bilan birga, bu iqtisodiy faollik Buxoroning eng katta boyligi bo‘lgan tarixiy muhit hisobiga kechmasligi shart. Shunda asrlar davomida shakllangan shahar qiyofasini saqlagan holda, zamonaviy va qulay Buxoroni rivojlantirish mumkin.

— Viloyatda yirik sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda. Sizningcha, Buxoroda qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish mumkin?

— Menimcha, Buxoro sanoati uchun eng to‘g‘ri yo‘l — xomashyo bazasini chuqur qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat zanjirini viloyatning o‘zida uzaytirish. Bunda masala zavodlar sonini ko‘paytirish bilan hal bo‘lmaydi. Asosiy mezon bir tonna xomashyodan qancha qiymat yaratishimiz, uni qay darajada tayyor mahsulotga aylantirishimiz va tashqi bozorga qanday narxda olib chiqishimiz bilan belgilanadi.

Buning uchun Buxoroda yetarli baza bor. Viloyatda neft-gaz, paxta, meva-sabzavot, qorako‘lchilik va ipakchilik xomashyosi, qurilish materiallari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Hozirning o‘zida neft-kimyo, mineral o‘g‘itlar, qog‘oz-karton, neft-gaz uskunalari uchun ehtiyot qismlar va gidroizolyatsiya materiallari ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar shakllanmoqda. Endi shu imkoniyatlardan foydalanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirishimiz kerak.

Birinchi muhim yo‘nalish — neft-gaz va kimyo sanoati. Qorovulbozor va Olot hududlaridagi uglevodorod resurslari gazni yoki oraliq mahsulotni sotishdan ko‘ra ancha keng imkoniyat beradi. Benzol, toluol va ksilol kabi mahsulotlardan keyingi bosqichda polimerlar, maxsus kimyoviy reagentlar, sanoat kompozitlari, qadoqlash materiallari, polimer quvurlar, avtomobil sanoati va maishiy texnika uchun detallar ishlab chiqarish mumkin. Maishiy kimyo, sintetik yuvish vositalari va avtokimyo mahsulotlari ham shu zanjirning davomi bo‘la oladi. Viloyatda bu yo‘nalishdagi loyihalar boshlangani keyingi bosqichga o‘tish uchun asos yaratadi.

Qorako‘lchilik va ipakchilik Buxoroning tarixiy ixtisoslashuvidir. Bu sohalarda ham xom teri, jun yoki pilla bilan cheklanib qolish iqtisodiy jihatdan yetarli samara bermaydi. Qorako‘l terisidan tayyor kiyimlar va aksessuarlar, ipakdan tayyor mato, ro‘mol va zamonaviy milliy liboslar ishlab chiqarish, ularni dizayn va brend bilan bog‘lash orqali an’anaviy mahsulotlarning bozor qiymatini oshirish mumkin.

Qurilish materiallari sanoatida “xomashyodan tayyor yechimgacha” tamoyili muhim. Viloyatdagi gips, granit, marmar va boshqa mineral resurslardan sayqallangan dekorativ tosh va plitalar, energiya tejamkor panellar, quruq qurilish aralashmalari, gidroizolyatsiya, fasad va interyer materiallari ishlab chiqarish imkoniyati bor. G‘ijduvon va Peshku tumanlarida qurilish materiallari sanoati ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani ham bu boradagi ishlarni kengaytirishga zamin yaratadi.

Yana bir istiqbolli yo‘nalish — sanoat uchun uskuna va butlovchi qismlar ishlab chiqarish. Neft-gaz, energetika, suv va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun nasoslar, klapanlar, filtrlar, elektr jihozlari va ehtiyot qismlarga doimiy talab mavjud.

Eng muhimi, bu yo‘nalishlarni bir-biridan uzib qo‘ymaslik kerak. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Buning uchun investitsiya bazasi ham shakllanmoqda. 2026-yilning birinchi yarmida Buxoroda 103 ta investitsiya loyihasi doirasida 1,3 milliard dollarlik xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Viloyat mahsulotlari 37 mamlakatga eksport qilindi.

— Buxoroning suv resurslari cheklangan. Qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish bilan birga suvni asrash muhim vazifa. Yaqin yillarda Buxoro qishloq xo‘jaligida nimadan voz kechib, nimani ko‘paytirish kerak?



— Buxoro uchun bu savolni, avvalo, “bir kub metr suvdan qancha qiymat olamiz?” degan nuqtai nazardan qo‘yish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki viloyatimiz adir, ya’ni cho‘l iqlimi hududida joylashgan. Yillik yog‘in miqdori taxminan 130-180 millimetrni tashkil etadi. Yoz oylarida esa yog‘ingarchilik deyarli kuzatilmaydi. Eng muhimi, suvning asosiy qismi Amudaryodan Amu-Buxoro kanali orqali nasoslar yordamida katta energiya sarfi hisobiga olib kelinadi. Shu sabab Buxoroda qishloq xo‘jaligining kelajagi yer maydonini kengaytirishdan ko‘ra, suvdan qanchalik samarali foydalanishimizga ko‘proq bog‘liq.

Bugun viloyatda 299,1 ming gektar sug‘oriladigan maydon mavjud. Unga yiliga o‘rtacha 3,93 milliard kub metr suv yetkazib beriladi. Ushbu suvning 95 foizi qishloq xo‘jaligi ehtiyoji uchun sarflanadi. Viloyatga suv 100 foiz nasos stansiyalari orqali keltirilishini hisobga olsak, ortiqcha sarflangan har bir kub metr suv ortida energiya xarajati ham borligi ayon bo‘ladi. Shuning uchun suvni tejash, tannarxini pasaytirish va irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish biz uchun strategik vazifa.

Qishloq xo‘jaligida esa suvtalab va iqtisodiy samarasi past ekinlarni, ayniqsa, suv ta’minoti murakkab hududlarda bosqichma-bosqich qisqartirish zarur. Ekin tarkibini o‘zgartirishning o‘zi suv muammosini hal qilmaydi. Suv tejovchi texnologiyalarni qishloq xo‘jaligining asosiy talablaridan biriga aylantirishimiz kerak. 2025-yilda 77,8 ming gektar maydonda zamonaviy sug‘orish va suv tejash texnologiyalari joriy etildi. 2026-yilda 35,8 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash rejalashtirilgan edi. Amalda bu ko‘rsatkich 46,7 ming gektarga, ya’ni rejaga nisbatan 130 foizga yetkazildi.

Masalaning yana bir tomoni — suvni faqat dalada tejash bilan cheklanib qolmaslik. Suv manbadan ekin maydoniga yetib kelguniga qadar ham yo‘qotishlar yuz beradi. Shu bois, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini yangilashga katta e’tibor qaratyapmiz. 2021-2025-yillarda 285,6 kilometr irrigatsiya va 153,6 kilometr kollektor tarmoqlari rekonstruksiya qilindi, 2 ta suv inshooti yangilandi, 32 ta nasos agregati va quduq barpo etildi.

2026-yilda bu ishlar yanada kengaymoqda. Rejaga muvofiq, 63,6 kilometr xo‘jaliklararo kanallarni betonlashtirish, 1081 kilometr kollektor tarmoqlarini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish, 4 ta nasos stansiyasini modernizatsiyalash, 22,5 kilometr magistral kanallarni yangilash hamda 1100 kilometr ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish belgilangan. Ushbu ishlar natijasida 36,4 ming gektar yerning meliorativ holati va 96,8 ming gektar maydonning suv ta’minotini yaxshilash, 453,5 million kub metr suvni iqtisod qilish ko‘zda tutilgan.

Kelgusida suv tejaydigan sug‘orish texnologiyalari ulushini 60 foizga yetkazish orqali 1 milliard 45 million kub metr suv iqtisod qilishni rejalashtiryapmiz. Biz uchun maydon hajmidan ko‘ra mahsuldorlik, yetishtirilgan xomashyo miqdoridan ko‘ra qo‘shilgan qiymati, umumiy suv sarfidan ko‘ra har bir kub metr suv hisobiga olinayotgan iqtisodiy samara asosiy mezon bo‘lib borishi kerak.

— Investitsiya masalasiga to‘xtalsak. Bugun investor uchun Buxoroning eng katta ustunligi nimada?

— Birinchi ustunlik — xomashyo va resurs bazasi. Buxoroda neft va gaz resurslari, gaz-kimyo sanoati, paxta va pilla, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun marmar, granit, gips, qum kabi mineral resurslar mavjud. Oldingi javoblarda aytganimizdek, bu resurslardan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan yangi loyihalar ham amalga oshirilyapti. Bu esa investor uchun faqat xomashyo manbasini emas, mahalliy kooperatsiya imkoniyatini ham kengaytiradi.

Ikkinchi muhim jihat — Buxoroning geografik joylashuvi va transport imkoniyatlari. Viloyat orqali Markaziy Osiyoni Turkmaniston, Eron, Rossiya va Yevropa bozorlari bilan bog‘laydigan temir yo‘l va avtomobil yo‘nalishlari o‘tadi. Buxoro xalqaro aeroporti ham tashqi aloqalar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihalar ham Buxoroning investitsiya muhitiga ta’sir qiladi. Viloyatda ACWA, Masdar kabi yirik xorijiy kompaniyalar ishtirokida quyosh va shamol energetikasi loyihalari ishga tushirilmoqda.

Investorlar uchun tayyor infratuzilma va maxsus hududlarning mavjudligi ham ahamiyatli. “Buxoro-agro” erkin iqtisodiy zonasi va viloyatning turli tumanlaridagi kichik sanoat zonalari ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish imkonini beradi. Amaldagi tartiblar doirasida investitsiya hajmiga qarab yer, mol-mulk va suv solig‘i bo‘yicha imtiyozlar ham nazarda tutilgan. Bu mexanizmlar investorning dastlabki xarajatlarini kamaytirish va loyihani ishga tushirish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Buxoroning investitsiya borasidagi asosiy ustunligini tayyor imkoniyatlar majmuasida ko‘raman. Biz investorga resurs, infratuzilma, bozor va tashqi savdo yo‘nalishlarini bir-biri bilan bog‘langan holda taklif qila olishimiz kerak. Shunda Buxoro investitsiya kiritish mumkin bo‘lgan hudud sifatidagina emas, loyihani amalga oshirish mexanizmi va keyingi bozori tushunarli bo‘lgan hudud sifatida ham raqobatlasha oladi.

— Buxoro O‘zbekiston bilan birga Markaziy Osiyodagi muhim tarixiy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lish imkoniyatiga ega. Viloyatni mintaqaviy turizm, savdo va logistika markaziga aylantirish uchun hozir qanday ishlar qilinmoqda?

— Avvalo, turizmda Buxoro shahri doirasidan butun viloyat miqyosiga chiqishga harakat qilyapmiz. Bu borada 2026-yil uchun aniq maqsadlar belgilangan. Joriy yilda viloyatga 3,5 million xorijlik va 5,5 million mahalliy sayyohni jalb qilish rejalashtirilgan. Buning uchun 73 ta yangi joylashtirish obyekti va 15 ta yangi turoperator hamda turistik firma tashkil etish rejalashtirilgan. Shaharda yangi turistik markaz va beshta xalqaro brend mehmonxonasini tashkil etish, Shofirkon tumanida Xo‘ja Orif, Buxoro tumanida Chor Bakr va Yorjon turizm qishloqlari, Mohi Xossa turistik mahallasini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Jondor, G‘ijduvon, Buxoro, Qorako‘l va Vobkent tumanlarida suv bo‘yi dam olish maskanlari, yo‘lbo‘yi servis obyektlari va yangi rekreatsiya zonalarini tashkil etish ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Romitan tumanida “Bukhara Desert Oasis & Spa” turistik klasteri tashkil etilmoqda. Bu cho‘l hududlarining imkoniyatlaridan foydalanib, ekoturizm va sarguzasht turizmini alohida turistik mahsulot sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Maqsadimiz sayyoh uchun Buxoro shahri, G‘ijduvon hunarmandchiligi, Chor Bakr, agro va etnoturizm, cho‘l turizmini birlashtirgan 3-5 kunlik marshrutlarni shakllantirish. Shunda turistning Buxoroda o‘tkazadigan vaqti ham, mahalliy xizmat va mahsulotlarga sarflaydigan mablag‘i ham ortadi.

Turizm infratuzilmasini kengaytirishda “Boqiy Buxoro” madaniy-etnografik majmuasi ham muhim loyihalardan. Unda mehmonxona majmualari, milliy hunarmandchilik markazlari, yashil hududlar va boshqa turistik infratuzilma obyektlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Turizm sohasi uchun zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlash maqsadida Avstriyaning Krems universiteti bilan hamkorlikda qo‘shma fakultet ochish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Albatta, mintaqaviy turizm markazi bo‘lish uchun transport bog‘liqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Toshkent — Buxoro yo‘nalishida qo‘shimcha yuqori tezlikdagi poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish, Buxoroga aviaqatnovlar sonini oshirish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda. Xalqaro turizmda Janubi-sharqiy Osiyo bozoriga ham alohida e’tibor qaratilyapti. Indoneziya, Malayziya va Singapurdan turistlar oqimini ko‘paytirish, jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilingan.

Buxoro tarixan odamlar, tovarlar va madaniyatlar tutashgan savdo markazi bo‘lgan. Bugungi vazifa shu tarixiy mavqeni zamonaviy iqtisodiy mazmun bilan boyitish, viloyatni Markaziy Osiyoda turizm, savdo va logistika o‘zaro bog‘langan muhim markazlardan biriga aylantirishdir.

— Sizningcha, bugun Buxoro aholisi hayotida sezilayotgan eng muhim o‘zgarish nima?

— Bugun Buxoro aholisi hayotida sezilayotgan eng muhim o‘zgarish — iqtisodiy faollik va yangi imkoniyatlarning odamlar kundalik turmushiga tobora yaqinlashayotgani. Viloyatdagi o‘zgarishlarni yirik qurilishlar, investitsiya hajmi yoki iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari orqali baholash mumkin. Odam esa bu jarayonni boshqacha o‘lchaydi: yangi ish o‘rni paydo bo‘ldimi, oilasining daromadi oshdimi, farzandi yaxshi sharoitda o‘qiyaptimi, mahallasidagi yo‘l, suv, transport va xizmatlar yaxshilandimi — uni, birinchi navbatda, shu savollar qiziqtiradi.

Buxoro shahrining o‘zida ham katta o‘zgarishlar bo‘lyapti. Yangi bosh rejada shahar hududini qariyb 4000 gektarga kengaytirish nazarda tutilgan. Yangi uy-joy massivlari, “Yangi O‘zbekiston” mahallalari, ijtimoiy obyektlar va yashil hududlarni barpo etish shaharning keyingi o‘n yilliklardagi rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi. Shahar kengayishi bilan birga maktab, bog‘cha, tibbiyot muassasasi, yo‘l, muhandislik va kommunal tarmoqlar ham mutanosib rivojlanishi kerak. Chunki yangi uy qurishning o‘zi yetarli emas, odamga yashash uchun to‘laqonli muhit zarur.

Ta’lim sohasidagi ishlar ham bevosita oilalar hayotiga daxldor. 2026-yilning birinchi yarmida viloyatda 151 ta maktab va 85 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida ishlar bajarilib, 24,5 mingdan ortiq yangi o‘quv o‘rni ochildi. Bu raqam ortida minglab oilalar uchun farzandining uyiga yaqin, munosib sharoitda ta’lim olishi bilan bog‘liq imkoniyat turibdi.

Infratuzilmadagi o‘zgarishlar ham kundalik hayotda tez seziladi. Shahardagi tirbandlikni kamaytirish va hududlar o‘rtasidagi transport bog‘liqligini yaxshilash maqsadida 7 ta aylanma yo‘l hamda yirik magistrallarni rekonstruksiya qilish bo‘yicha ishlar boshlangan. Ichimlik suv va energiya ta’minoti tizimlarini yaxshilashga ham mablag‘ yo‘naltirilyapti. Oldin aytganimdek, bu yo‘nalishlarda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar bor. Shu bilan birga, muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish aholi turmushidagi o‘zgarishning eng muhim qismlaridan biri bo‘lishi kerak.

Ish bilan ta’minlash va doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish esa odamlar eng tez his qiladigan o‘zgarishlardan. Kogon, Qorako‘l, G‘ijduvon va boshqa hududlarda yangi sanoat quvvatlarining paydo bo‘lishi, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi aholining yashash joyiga yaqin hududda ishlash va daromad topish imkoniyatini oshiradi. Men uchun bu juda muhim. Chunki investitsiyaning aholi uchun eng tushunarli natijasi — barqaror ish o‘rni va daromad.

Shu bois, bugungi o‘zgarishlarni Buxoroning faqat tashqi qiyofasi yangilanayotgani bilan izohlamasdim. Gap iqtisodiy rivojlanishning odamlar hayotiga tobora yaqinlashib borayotganida. Yangi korxona ish o‘rni ochsa, yangi maktabda bolaga yaxshi sharoit yaratilsa, yo‘l odamning vaqtini tejasa, suv va transport bilan bog‘liq muammolar kamaysa, iqtisodiy o‘sishning mazmuni odamga tushunarli bo‘ladi. Albatta, bu jarayon hali yakunlangani yo‘q. Oldimizda hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar ko‘p.

— Buxoro brendi kelajakda nima bo‘lishi mumkin?

— Buxoro dunyoga allaqachon tarixiy shahar sifatida tanilgan. Endigi vazifa — shu tarixiy nufuzni zamonaviy iqtisodiyot, hunarmandchilik, ta’lim, turizm, kreativ industriyalar va yangi avlod imkoniyatlari bilan bog‘lash.

Masalan, Buxoro hunarmandchiligini sayyohga sotiladigan esdalik buyumlar doirasida ko‘rish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Qorako‘l, ipak, zardo‘zlik, gilamchilik va boshqa an’anaviy yo‘nalishlarni zamonaviy dizayn, sifat va brendlash bilan bog‘lasak, ularning tashqi bozordagi qiymatini oshirish mumkin. Mahsulotning Buxoroda ishlab chiqarilgani uning kelib chiqishi, tarixi va mahoratini ifodalaydigan o‘ziga xos sifat belgisi bo‘lishi kerak.

Turizmda ham shunday yondashuv zarur. Sayyoh Buxoroga kelib faqat tarixiy obidalarni tomosha qilib ketishi bilan cheklanmasligi kerak. U milliy taomlarni tatib ko‘rsin, hunarmand ustaxonasiga kirsin, mahalliy mahsulot sotib olsin, tumanlarga borsin, cho‘l va ekoturizm imkoniyatlaridan foydalansin.

Kelajakdagi Buxoro faqat “ko‘rish uchun boriladigan” tarixiy shahar bo‘lib qolmasligi kerak. U yashash, ta’lim olish, ishlash, biznes bilan shug‘ullanish, ijod qilish va yangi tajriba orttirish uchun ham qiziqarli hudud bo‘lishi lozim. Tarixiy merosimiz shu jarayonda o‘z qiymatini yo‘qotmaydi, aksincha, yangi iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarning asosiga aylanadi.

Shu ma’noda, Buxoroning kelajakdagi brendini bir jumlada “Tarixdan kelajak sari” deb ifodalagan bo‘lardim. Chunki oldimizdagi vazifa tarixni asrash bilan birga, uni yangi imkoniyatlar, zamonaviy taraqqiyot va yangi avlod uchun kuchga aylantirishdan iborat.

Hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, “yettilik”ning har bir vakilida resurs va vakolat yetarli.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 31-oktabr, 226-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Buxoro shahri mamlakatimizning eng qadimiy va ulug‘vor manzillaridan. Shu bois, bu yerdagi qo‘ni-qo‘shnichilik an’analari, mahallaning o‘ziga xos qadriyatlari ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ko‘p asrlardan beri xalqimiz “Bir bolaga yetti mahalla — ota-ona”, “Mahallang tinch — sen tinch” kabi purma’no hikmatlarga tayanib, umrguzaronlik qilib keladi. Bugungi ortga qaytmas islohotlar tarixiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib, guzarlarimiz yanada tinch va obod, xalqimiz hayoti farovon bo‘lmoqda.



Inson qadri uchun

OBOD MAHALLA, FAROVON XONADON – BARQAROR JAMIYAT ASOSI



Sherzod ASHUROV,
O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Buxoro viloyati boshqarmasi boshlig‘i

Ayniqsa, keyingi yillarda mahalla tizimidagi tub o‘zgarishlar aholi vakillarining ko‘pgina masalalari mahalla idorasining o‘zidayoq yechimini topishiga zamin hozirladi. So‘nggi yillarda mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish, moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar mahallani nafaqat aholi muammolarini hal etuvchi maskanga, balki yurtdoshlarimizni bunyodkorlik, yaratuvchanlik, yurt taqdiriga daxldorlik kabi ezgu fazilatlarga ruhlantiruvchi, ezgu tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvchi tuzilmaga aylantirmoqda.

Prezidentimiz shu yil 16-iyul kuni mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida alohida qayd etganidek, hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, “yettilik”ning har bir vakilida resurs va vakolat yetarli.

Buni raqamlardan ham bilish mumkin. Joriy yil infratuzilmani yaxshilash, odamlar va tadbirkorlar uchun sharoit yaratish maqsadida tumanlarga o‘rtacha 250 milliard so‘mdan, mahallalarga esa 5,5 milliard so‘mdan mablag‘ berildi. Tuman hokimlari va mahalla raislarining tushum bo‘yicha vakolati kengaytirilgani natijasida hududda qoladigan qo‘shimcha daromad 2 barobargacha ko‘paydi. Tumanlarda o‘rtacha 22 milliard so‘mdan qo‘shimcha mablag‘ qoldi. Mahalla byudjetiga esa o‘rtacha 150-200 million so‘m tushdi.

Asosiy masala berilgan imkoniyat va vakolatlardan foydalanib, aholining muammolariga yechim topish, tadbirkorlik yo‘nalishidagi harakatini rag‘batlantirishdir. Bu esa mas’ullardan faollik va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ya’ni fidoyi bo‘lishni talab etadi. Buxoro viloyati mahallalaridagi “yettilik” bu imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat jamoa aholini ish bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilalarda tinchlik-totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash maqsadida keng qamrovli ishlarni bajarmoqda.

Aholi bandligini ta’minlash, ishsizlikni qisqartirish va fuqarolarning daromad manbalarini kengaytirish borasidagi ishlar zamirida inson manfaati, munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratishdek ezgu maqsad mujassam. Zero, har bir fuqaroning ishli bo‘lishi, o‘z mehnati orqali oilasi farovonligini ta’minlashi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki jamiyatdagi ijtimoiy xotirjamlikning ham muhim omilidir.

Shu ma’noda, joriy yilning to‘qqiz oyida Buxoro shahri mahallalarida 4000 dan ortiq fuqaroning bandligi ta’minlanganini alohida qayd etish lozim. Ularni ishga joylashtirishda mehnat faoliyatining xavfsiz va barqaror ekani, daromadining bugungi bozor talablariga mosligiga alohida urg‘u berildi. Natijada ushbu oilalarning barchasi kambag‘allikdan chiqarildi.

E’tiborlisi, ularning 2000 dan ortig‘i xotin-qizlar, qariyb 1500 nafari yoshlardan iborat. Gap aholi bandligini ta’minlash haqida borar ekan, ushbu yo‘nalishda, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishga katta e’tibor qaratilayotganini ta’kidlash lozim.

Shuningdek, mehnat migrasiyasidan qaytgan 1000 ga yaqin fuqaroning bandligi ta’minlangani ularning xorijda orttirgan tajribasi va malakasini yurtimizda samarali ishga solish, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun imkoniyat yaratish yo‘lidagi muhim qadamlardan bo‘ldi.

Aholi bandligini ta’minlashda ishsizlarga bozorda talab yuqori kasb-hunar o‘rgatish va tadbirkorlikka yo‘naltirish juda muhim. Shu maqsadda 523 fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Bu esa ularning nafaqat bugungi ehtiyojlarini qondirish, balki kelgusida mustaqil daromad topishi, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun ham puxta zamin hozirladi.

Hududda iqtisodiy faollikni oshirish, aholi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va yangi daromad manbalarini shakllantirish maqsadida 1830 ta mikroloyiha ishga tushirildi. Bunday loyihalar mahalliy imkoniyatlardan unumli foydalanish, kichik biznesni rivojlantirish va aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari ochishda muhim omil bo‘lmoqda.

Bugun mamlakatimiz agrar sektoriga zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or tajribalar keng joriy etilmoqda. Natijada ushbu tarmoqda hosildorlik, sanoatlashuv darajasi, shunga mos ravishda yuqori daromad olish imkoniyati ham kengaymoqda. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi sohasining ilmiy asos va zamonaviy texnologiyalar yordamida jadal rivojlantirilishi aholi bandligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Boshqa hududlar singari Buxoro viloyatida ham ushbu yo‘nalishda daromad topish istagidagi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, talabgorlarga ijara asosida yer maydoni ajratilyapti. Bu jarayonda faqat yer ajratish bilan cheklanib qolinmay, talabgorlarning yerdan unumli foydalanishi, yuqori hosil olishi va ko‘zlangan daromadga erishishi uchun barcha qo‘llab-quvvatlov choralari ko‘rilmoqda.

Umuman olganda, bu kabi chora-tadbirlar ortida minglab insonlarning hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar, oilalar farovonligi va kelajakka ishonchini mustahkamlash maqsadi turibdi. Yaratib berilayotgan imkoniyatlar esa aholining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. Zero, har bir yangi ish o‘rni, har bir yo‘lga qo‘yilgan mikroloyiha va har bir qo‘llab-quvvatlangan tashabbus obod mahalla, farovon xonadon va barqaror jamiyat sari tashlangan muhim qadamdir.

Buxoro shahridagi mahallalarning o‘ziga xos jihati, boshqacha aytganda, ustuvorligini ham qayd etish lozim. Binobarin, bu yerda turizm, xususan, ziyorat turizmi rivojlangan. Bu esa hududda savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish, mehmonxona va mehmon uylari faoliyati rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shahrimizning eski shahar nomi bilan yuritiladigan qismida qadimiy Buxoro maqbaralariga monand mehmon uylari kompozitsiyasi hosil qilingan. Ushbu hududda aholi vakillarining tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi yoki mehmon uylarini jihozlashi uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Birgina misol, Furqat mahallasida qariyb 3000 kishi istiqomat qiladi. Mahallaning asosiy drayveri xizmat ko‘rsatish va savdo. “Mahalla yettiligi” tomonidan o‘tkazilgan xatlov natijalariga ko‘ra, hududda ishsiz 20 fuqaro ro‘yxatga olingan edi. Ularning bandligini ta’minlash, daromadli qilish maqsadida 3 yo‘nalishda 1 milliard so‘mga yaqin imtiyozli kredit ajratildi. Natijada ularning barchasi daromadli tarmoqlarga jalb qilindi. Shuningdek, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolardan 7 nafari migrasiyadan qaytarilib, daromadli ish joyi bilan ta’minlandi.



Imtiyozli kreditdan foydalanganlardan biri — Nigora Fayziyeva zargarlik ustaxonasini tashkil etib, tadbirkorlik faoliyatini boshladi. Unga zarur asbob-anjomlarni xarid qilishi uchun 33 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Dastlab o‘z xonadonida ishni boshlagan Nigora faoliyatini kengaytirib, mahallasidagi ishsiz 3 fuqaroni ham ish bilan ta’minladi.

Ayni paytda “Sara Silver” zargarlik maktabiga asos soldi. Tadbirkor hozir 10 dan ortiq yoshga ustoz-shogird an’anasi doirasida hunar o‘rgatmoqda. O‘zi va shogirdlari tayyorlagan zargarlik buyumlarini respublikamizning turli hududiga sotib, yillik sof foydasini 100 million so‘mga yaqinlashtirdi. Shahrimizda bunday startap loyihalarning sanab sanog‘iga yetib bo‘lmaydi.

“Ko‘kaldosh” mahalla fuqarolar yig‘inida esa mehmonxona va mehmon uylari tashkil etish imkoniyati mavjud. Mahalladagi ishsiz fuqarolardan biri Azizbek Sattorov imtiyozli kredit olib, “Meros” nomli mehmonxona faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Bugun u mahalliy va xorijlik sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatmoqda. Ushbu tarmoq rivoji natijasida bugun mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylangan.

Shahrimiz mahallalarida azaldan hunarmandlar istiqomat qilib keladi. Avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan hunarga qiziqishning yoshlar orasida ham ommaviylashgani kishini quvontiradi. Masalan, Ko‘kaldosh mahallasida yashovchi Rafael Toshev miniatyura va rassomchilik yo‘nalishida oilaviy faoliyat yuritib, ko‘plab shogirdlar yetishtirmoqda. Chet ellik shogirdlari ham bor. Aslida, mahallada bunday hunarmandlar ko‘p. Masalan, milliy kiyimlar, kelin-kuyovlarga sarpolar tikadigan chevar Zulfiya Safoyevaning 100 dan ortiq shogirdi bor.

Mahallaning yana bir muhim vazifasi oila mustahkamligini saqlab qolish, ajrashishlarning oldini olishdir. Mahallalarimizda bu borada ibratli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Ya’ni katta hayot tajribasiga ega otaxonu onaxonlar, Oqila ayollar guruhi, Buvijonlar maktabi a’zolari, namunali oila vakillari, profilaktika noziri bilan birgalikda ajrashish yoqasida turgan oilalarning muammolari, ajrashish sabablari atroflicha o‘rganilib, ularga to‘g‘ri maslahat berilmoqda.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan “Inson qadri uchun” g‘oyasining amaliy ifodasi, eng avvalo, mahallada namoyon bo‘ladi. Chunki mahalla — xalqimizning azaliy qadriyatlari mujassam bo‘lgan, Vatan bag‘ridagi kichik bir vatan, ayni vaqtda aholi bilan davlat o‘rtasidagi eng yaqin va jonli muloqot maskani. Bugun uni yanada obod va farovon qilish, odamlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoit hamda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Endi biz, soha mas’ullaridan ana shu imkoniyatlarni samarali ro‘yobga chiqarish, har bir mahallani fayzli, obod va go‘zal maskanga aylantirish yo‘lida sidqidildan mehnat qilish talab etiladi.

Tadbirkorlik shunchaki mablag‘ topish vositasi yoki quruq iqtisodiy tushuncha emas, balki oilalarga xotirjamlik, xonadonlarga qut-baraka va mahallalarga chinakam taraqqiyot olib kirayotgan hayotbaxsh kuchdir. Uni rivojlantirish uchun yurtimizda barcha huquqiy va moliyaviy poydevorlar mustahkam yaratib berilmoqda.

Islohotlar shiddati

DAVLAT E’TIBORI VA OILALAR BARAKASI

Tadbirkor ayollar faoliyatida namoyon

Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan tadbirkorlik loyihalari ham shunchaki quruq hisobotlardagi raqamlar emas, balki yuzlab insonlarning ko‘zidagi quvonch, oilalar to‘kinligi va istiqbolli kelajakka bo‘lgan yorqin ishonchidir.

Omad formulasi mahalladan boshlanadi

Biznes zanjirining go‘zal bir bo‘g‘ini Buxoro shahrining Fitrat mahallasidan boshlanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mahallaning fayzli ko‘chalaridan o‘tib borar ekansiz, yangi pishgan shirinliklarning yon-atrofga taralayotgan yoqimli hidi ishtahangizni ochib, kayfiyatingizni ko‘taradi. Aslida, bu hid o‘z xonadoniga daromad olib kirayotgan halol mehnatning totli bo‘yidir.



Bir paytlar uyda ishsiz o‘tirgan, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli “Ayollar daftari”ga kiritilgan Nodirabegim Tohirova shu mahallada yashaydi. 2025-yilda mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi va kafilligi asosida unga 33 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi.

— Bu pul kimdir uchun balki katta raqam emasdir, lekin men uchun yangi hayotning, ushalmay turgan orzularimga qanot bo‘lgan katta yaxshilik edi. Ushbu sarmoya evaziga xonadonimda zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan “Napoleon premium” qandolat mahsulotlari sexini tashkil etdik. Hozir bir kunda 25 turdan ortiq shirinliklar va tortlar tayyorlab, aholiga yetkazib beryapmiz, — deydi u.

Eng muhimi, Nodirabegim o‘zi oyoqqa turib olgach, mahalladoshlarini unutmadi. Ishsiz opa-singillarini qo‘llab-quvvatladi. Hozir uning chog‘roqqina korxonasida 15 pazanda xodim doimiy ish bilan ta’minlangan bo‘lib, ularning 9 nafari mahalladagi “Ayollar daftari”da turgan xotin-qizlardir. Ularning mehnatiga yarasha, barqaror ravishda 2,5 million so‘mdan 5 million so‘mgacha oylik maosh to‘lanmoqda.

Sexda “ustoz-shogird” an’anasi asosida qandolatchilikka qiziquvchi yosh qizlarga amaliy bilimlar beminnat o‘rgatilmoqda.

Tadbirkor ayol ish o‘rinlari sonini 25 taga yetkazishni maqsad qilib, navbatdagi kredit sarmoyasini olish uchun ariza rasmiylashtirgan. Nodirabegimning mahalladoshlari dasturxonini shirin qilayotgan bu zahmati Buxoroning turizm infratuzilmasida yirik loyihani boshqarayotgan Shahnoza Ahrorova faoliyati bilan mantiqan bog‘lanadi.

Mehmonxona biznesi va oilaviy sulola

Nodirabegim mahalladoshlarining hayotiga shirinlik olib kirayotgan bir paytda Buxoroning yana bir fidoyi ayoli, asli Romitan tumanidan bo‘lgan Shahnoza Ahrorova xotin-qizlarni xizmat ko‘rsatish va turizm sohasiga jalb etish orqali bandlik zanjirini yangi bosqichga ko‘tarmoqda.

U ham o‘z vaqtida ishsizlik mashaqqatini tortgan, ammo yurtimizda yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bugun Buxoro shahrida shinamgina “Rangrez Bukhara” xususiy korxonasi tarkibidagi mehmonxona tarmog‘ini yo‘lga qo‘ygan tashabbuskor tadbirkor.

Loyihaning asosiy muvaffaqiyati shundaki, u farzand tarbiyasi bilan uyda o‘tirib qolgan, hunari bo‘lsa-da, sharoiti yo‘q ayollarni o‘z atrofiga birlashtirdi. Mahalla faollari va bank mas’ullari ko‘magida imtiyozli kredit jalb qilib, o‘zi yashayotgan hududda turizm xizmatlari ko‘rsatishni boshladi.



— Mehmonxona ishi shunchaki kelgan odamga xona kalitini topshirish degani emas. Chunki ko‘hna shahrimizga dunyoning to‘rt burchidan sayyohlar keladi. Ular muomalamizga, kiyinishimizga, tabassumimizga qarab butun boshli o‘zbek xalqiga baho berishadi. Shuning uchun men xodimlarimizga “Biz shunchaki biznes qilayotganimiz yo‘q, o‘zbek xonadonining madaniyatini, mehmondo‘stligini va o‘zbek ayolining yuzini ko‘rsatyapmiz”, deyman, — deydi Shahnoza Ahrorova. — Mehmonxonamiz 30 ta xonadan iborat bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 58 kishini qabul qila oladi. 2023-yilda 2694, 2024-yilda 3200, 2025-yilda esa 4340 sayyohga xizmat ko‘rsatdik. Shu davr oralig‘ida 2 milliard 580 million so‘m sof foyda oldik. Korxonadagi 12 xodimimizning ham ro‘zg‘ori but, ular olayotgan o‘rtacha oylik maosh esa to‘rt million so‘mni tashkil etadi.

Bugun mazkur oilaviy biznes yuksak professionallik asosida boshqarilmoqda. Shahnozaning turmush o‘rtog‘i Shavkat Hasanov “Minor Grand” MCHJ moliyaviy menejeri sifatida iqtisodiy jarayonlarni boshqarsa, o‘g‘li Bekjon Sayliyev “Rangrez Bukhara” xususiy korxonasi rahbari sifatida mehmonxona boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shahnoza Ahrorova “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, u so‘nggi yillarda “Yilning eng yaxshi xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonasi”, “Eng yaxshi servis ko‘rsatgan mehmonxona”, “Eng sifatli xizmat ko‘rsatgan mehmonxona”, “Yilning eng yaxshi menejeri” kabi o‘nlab nufuzli diplom va mukofotlarni qo‘lga kiritdi.

Qahramonimizning yana bir katta yutug‘i ustozlik maqomidir. “Korxona-kollej” hamkorligi doirasida 3 yilda 650 bitiruvchi yosh ushbu mehmonxonada amaliyot o‘tadi va ularning sakkiz nafari doimiy ishga qabul qilindi.

Shahnoza jamoatchilik va homiylik ishlarida ham faol bo‘lib, so‘nggi uch yilda ko‘zi ojizlar jamiyati, nogironlar jamiyati, Mehribonlik uylari hamda kam ta’minlangan oilalarga 100 million so‘mlik homiylik yordami ko‘rsatdi.

Yaqindagina Xorazm zaminida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan o‘tkazgan an’anaviy ochiq muloqoti Shahnoza uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

— Davlatimiz rahbari Buxoro va Xorazmda turizm bilan birga kreativ industriyani rivojlantirish zarurligini aytdi, — deydi Shahnoza. — Bu biz uchun yangi vazifa. Mana shu yaratilayotgan qulay ishbilarmonlik muhitidan foydalanib, respublika miqyosidagi yirik korxonalar bilan keng qamrovli hamkorlik zanjirini kuchaytiramiz.

Maqolamiz qahramoni yaratgan xizmat ko‘rsatish tarmog‘i bugungi kunda Buxoroning sayyohlik salohiyatini oshirishga xizmat qilish bilan birga xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlikni kasb o‘rgatish orqali hal etishning eng samarali modeliga aylandi.

Buxorolik bu ikki tadbirkor ayolning hayot yo‘li, zahmatli mehnati va erishgan yutuqlari shunchaki alohida ajralgan biznes tarixi emas. Bu islohotlar, tashabbuslar va oddiy xalq intilishi bir nuqtada birlashganda qanday buyuk natijalar berishining yaqqol hayotiy misolidir.

Ularning faoliyati xuddi zanjirdek bir-birini mantiqan to‘ldiradi. Nodirabegim mahalla ahli dasturxoniga shirinlik va baraka ulashsa, Shahnoza mehmondo‘stlik va xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarni birlashtirib, ular uchun doimiy daromad manbai yaratmoqda hamda ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini yuksaltirmoqda.

Zero, harakat qilgan, tinimsiz intilgan va halol mehnatdan qochmagan insonga rizq ham, baxt ham, albatta, kulib boqaveradi. Davlat tomonidan berilgan imkoniyatni to‘g‘ri ilg‘ab, nafaqat o‘z oilasini, balki mahalladosh opa-singillarini ham ish bilan ta’minlayotgan tadbirkor ayollarning bosib o‘tgan yo‘li ushbu azim zaminda kambag‘allikni qisqartirish va xotin-qizlar baxtini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

CHEKLOVDAN IMKONIYATGA

oliy ta’lim taraqqiyotining yangi bosqichi

Prezidentimizning mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi mamlakatimiz bosib o‘tgan yo‘lni tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash va kelgusi taraqqiyot vazifalarini belgilash uchun muhim asos bo‘ldi. Iqtisodchi olim sifatida bir jihatga alohida e’tibor qaratmoqchiman: oliy ta’limga sarflangan mablag‘ shunchaki ijtimoiy xarajat emas, balki iqtisodiyotning kelajakdagi raqobatbardoshligiga kiritilgan uzoq muddatli investitsiyadir.



Baxtiyor NAVRO‘ZZODA, Buxoro davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Kecha. Yaqin o‘tmishga nazar tashlasak, oliy ta’lim tizimida hal etilishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjud edi. Oliygohlarga qabul imkoniyati cheklangan, talabalar turar joylariga ehtiyoj yuqori, ayrim ta’lim muassasalarida o‘quv laboratoriyalari va moddiy-texnik baza zamon talablariga to‘liq javob bermasdi.

Bunday sharoitda oliy ma’lumot olish ko‘plab yoshlar uchun katta orzu bo‘lib qolardi. Qabul o‘rinlarining cheklangani raqobatni kuchaytirgan bo‘lsa-da, har doim ham bilim va qobiliyatni to‘liq namoyon etish uchun yetarli imkoniyat yaratmasdi.

Yana bir og‘riqli masala talabalar va professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan tashqari ishlarga, jumladan, paxta yig‘im-terimiga jalb etilishi edi.

Buni faqat mehnat munosabatlari nuqtai nazaridan emas, ta’lim iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ham baholash zarur. Chunki o‘qituvchining darsdan, olimning tadqiqotdan, talabaning esa bilim olishdan chalg‘itilishi inson kapitali shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy faoliyatning samaradorligi uzluksiz izlanish, tajriba va tahlilga bog‘liq. O‘quv jarayonidagi har qanday uzilish esa ta’lim sifatiga ta’sir etishi mumkin. Shu bois, majburiy mehnatga qarshi amalga oshirilgan islohotlar nafaqat inson huquqlari, balki ta’lim sifati va mehnat unumdorligini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim.

Bugun. Islohotlarning eng ko‘zga ko‘rinarli natijasi oliy ta’limga kirish imkoniyatlari kengayishida namoyon bo‘lmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda mamlakatimizda 77 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib, ularning soni 207 taga yetgan. Bu oliy ta’lim muassasalari soni qariyb 2,7 barobar oshganini anglatadi. Oliy ta’lim tashkilotlari tarkibida davlat universitetlari bilan bir qatorda nodavlat ta’lim muassasalari va xorijiy oliygohlar filiallari faoliyat yuritishi ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirmoqda.

Raqobat esa universitetlarni faqat talabalar sonini ko‘paytirishga emas, ta’lim sifati, zamonaviy dasturlar, ilmiy salohiyat va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga undashi kerak.

O‘sish. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2015/2016-o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarida 264,3 ming talaba tahsil olgan bo‘lsa, 2025/2026-o‘quv yili boshida ularning soni 1 million 535 ming nafarga yetgan. Demak, o‘n yilda talabalar soni qariyb 5,8 barobar oshgan. Bu raqamlar ortida minglab oilalarning farzandini oliy ma’lumotli qilish orzusi, yoshlarning o‘z kelajagini bilim orqali qurishga intilishi turibdi.

Oliy ta’limga qamrov darajasi kengayishi ham mazkur o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichidir. Yoshlarning oliy ta’limga qamrovi 9 foizdan 44 foizga yetdi. Biroq iqtisodiy nuqtai nazardan muhim savol bundan iborat: oliy ta’limga qabul ko‘payishi mehnat bozori uchun qanday qiymat yaratmoqda?

Agar universitet bitiruvchisi zamonaviy kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lsa, ishlab chiqarishga innovatsiya olib kirsa, tadbirkorlik bilan shug‘ullansa yoki yangi ish o‘rinlari ochsa, ta’limga kiritilgan investitsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi namoyon bo‘ladi. Shu sababli endi asosiy e’tibor qamrovdan sifatga, sifatdan esa aniq iqtisodiy natijaga o‘tishi lozim.

Sifat. Oliy ta’lim muassasasining imkoniyati auditoriya, laboratoriya, axborot resurslari, talabalar turar joylari va ilmiy infratuzilma bilan bevosita bog‘liq. Ilgari talabalar turar joylariga ehtiyojni qoplash jiddiy muammolardan edi. Rasmiy hisobotlarga ko‘ra, 2017-yilda talabalar turar joylariga ehtiyojning 28 foizi qoplangan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 57 foizga yetgan.

Bu o‘sish muhim. Shu bilan birga, mazkur raqam talabalarni turar joy bilan ta’minlash masalasi hali ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Chunki talaba uchun munosib yashash sharoiti ta’lim jarayonining ajralmas qismi. Uning vaqtini tejash, xavfsiz muhit yaratish, mustaqil ta’lim olish va ilmiy izlanish bilan shug‘ullanishiga imkoniyat berish bevosita o‘zlashtirish natijalariga ta’sir qiladi.

Ilmiy laboratoriyalar masalasida ham xuddi shunday yondashuv zarur. Zamonaviy laboratoriyaning haqiqiy qiymati faqat uskunalar narxi bilan emas, balki ular orqali bajarilgan tadqiqotlar, tayyorlangan mutaxassislar, olingan patentlar va ishlab chiqarishga joriy etilgan ishlanmalar bilan baholanishi kerak.

Buxoro davlat universitetida ham ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni o‘zaro bog‘lash, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy ishlanmalarning amaliy ahamiyatini oshirish dolzarb vazifalardan. Ayniqsa, Buxoro viloyati iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan turizm, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va tadbirkorlik sohalarida universitet ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish katta imkoniyatlarga yo‘l ochadi.





Raqamli ta’lim. Kechagi va bugungi oliy ta’lim o‘rtasidagi muhim farqlardan yana biri, shubhasiz, boshqaruv jarayonining raqamlashtirilishidir. Ilgari talabalar o‘zlashtirishi, davomati, o‘quv rejalari va boshqa akademik ma’lumotlarni yuritishda qog‘ozli hujjatlar salmoqli o‘rin tutgan. Bu esa ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ortiqcha vaqt talab qilardi. Bugun HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim jarayonlarini boshqarishda qo‘l kelyapti. Mazkur tizim orqali talabalar kontingenti, professor-o‘qituvchilar faoliyati, o‘quv jarayoni, davomat va akademik natijalarni elektron shaklda yuritish imkoniyati kengaydi.

Oliy ta’limga qabul jarayonida ham ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qabul tartiblari raqamlashtirilishi va natijalar haqida axborot olish imkoniyatlari kengayishi norasmiy aralashuvlar xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq raqamli tizimning o‘zi barcha muammoni avtomatik hal etmaydi. Uning samaradorligi ma’lumotlarning to‘g‘ri kiritilishi, adolatli baholash mezonlari va mas’ul xodimlarning raqamli savodxonligiga ham bog‘liq. Shu ma’noda, raqamlashtirishni texnik yangilanish emas, balki ta’lim boshqaruvida hisobdorlik, shaffoflik va natijadorlik madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Yangi vazifa. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, universitetlarning mamlakat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi faqat diplomli kadrlar tayyorlash bilan cheklanmaydi. Zamonaviy universitet yangi g‘oyalar, texnologik yechimlar, tadbirkorlik tashabbuslari va hududiy rivojlanish loyihalari shakllanadigan markaz bo‘lishi lozim.

Masalan, turizm sohasini olaylik. Buxoro boy tarixiy-madaniy merosi, ziyoratgohlari va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari bilan katta salohiyatga ega. Biroq sayyohlar oqimining ko‘payishi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy samarani kafolatlamaydi. Buning uchun turistlarning hududda qolish muddatini uzaytirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar turini ko‘paytirish, raqamli marketingni rivojlantirish, mahalliy mahsulotlarni turistik qiymat zanjiriga kiritish va kadrlar malakasini oshirish zarur. Ana shunday masalalar universitet olimlari uchun amaliy tadqiqot yo‘nalishi bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish, kichik biznesni boshqarish, hududiy mehnat bozori ehtiyojlarini o‘rganish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo‘nalishlarda ham oliy ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish talab etiladi.

Yetti milliy dastur. Prezidentimiz kelgusi o‘n yillikda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur amalga oshirilishini ta’kidladi. Ular bilim va malakani taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish, aholi salomatligi, iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar hamda mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish, suv va tabiatga munosabatni o‘zgartirish, sud mustaqilligi, qonun ustuvorligini mustahkamlash, mahallaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini kuchaytirish hamda O‘zbekistonning tinchlik, do‘stlik va bag‘rikenglik makoni sifatidagi nufuzini yuksaltirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mazkur dasturlar o‘zaro uzviy bog‘liq. Zero, bilimli kadrlarsiz yuqori texnologiyali iqtisodiyotni shakllantirish, samarali boshqaruvsiz resurslarni tejash, ilmiy yondashuvsiz esa hududlarni barqaror rivojlantirish qiyin.

Ushbu dasturlarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalari faolligi alohida ahamiyatga ega. Buning uchun qator omillarga e’tibor qaratish kerak. Jumladan, universitetlarda inson kapitali samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bunda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritishi, kasbiy o‘sishi va ish beruvchilarning qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlar muntazam tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, hududiy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ilmiy loyihalar portfelini shakllantirish lozim. Buxoro viloyati misolida turizm, xizmatlar iqtisodiyoti, suv tejamkorligi, agrobiznes, raqamli marketing va kichik tadbirkorlik yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kengaytirish muhim.

Universitet — korxona — mahalla hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish kerak. Har bir hududdagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularga ilmiy yechim taklif qilish va natijani amaliyotda sinab ko‘rish uchun professor-o‘qituvchilar, talabalar, tadbirkorlar hamda mahalla vakillari ishtirokida qo‘shma loyihalar tashkil etish mumkin.

Talabalarning tadbirkorlik va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur. Biznes-reja tuzish, startap loyihalarni iqtisodiy baholash, bozor tadqiqotlarini o‘tkazish va intellektual mulkni tijoriylashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim muassasalarida resurslar samaradorligini oshirish muhim. Energiya va suv iste’molini hisobga olish, raqamli monitoringni kengaytirish, yashil texnologiyalarni qo‘llash hamda tejamkor boshqaruv usullarini joriy etish orqali universitetlarning o‘zi barqaror rivojlanish namunasiga aylanishi mumkin.

Ta’lim sifati bilan mehnat bozori talablari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish lozim. O‘quv dasturlarini ish beruvchilar bilan hamkorlikda yangilash, amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ulushini oshirish va talabalarning haqiqiy ishlab chiqarish muhitida tajriba orttirishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqot natijalarini baholashda ularning amaliy ta’siriga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarishga joriy etilgan yechimlar, tashkil etilgan yangi ish o‘rinlari, tejalgan resurslar va yaratilgan iqtisodiy qiymat ham muhim mezon bo‘lishi zarur.

Xulosa. Kechagi va bugungi oliy ta’limni qiyoslar ekanmiz, o‘zgarishlarning eng muhim jihati insonga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘layotgani ayonlashadi. Kecha oliy ta’limga kirish imkoniyati cheklangan, infratuzilma muammolari ko‘p va ta’lim jarayoniga begona vazifalar aralashgan davrlar bo‘lgan bo‘lsa, bugun oliy ta’lim qamrovi kengaymoqda, boshqaruv raqamlashtirilmoqda, ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlar shakllanmoqda. Ayni paytda bu natijalarni yakuniy manzil deb qabul qilmaslik kerak. Oldimizda ta’lim sifatini oshirish, universitetlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini kuchaytirish, ilm-fan natijalarini amaliyotga keng joriy etish kabi vazifalar turibdi.

Prezidentimiz ilgari surgan yettita milliy dastur ham aynan shunday yondashuvni talab etadi. Ularning muvaffaqiyati davlat idoralari bilan bir qatorda universitetlar, ilmiy jamoalar, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligiga bog‘liq.

Tarix va sayyoh

Turizm gavhari

Asrlar davomida Sharqning muhim ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lgan tabarruk zamin — Buxoro bugungi kunda O‘zbekistonning eng mashhur turizm maskanlaridan biriga aylanmoqda.



Viloyatda so‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishda nafaqat sayyohlar oqimini oshirish, balki ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va darajasini yanada yaxshilashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada zamonaviy mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, professional gidlik xizmatlari hamda raqamli xizmatlarni kengaytirishga alohida e’tibor berilyapti.

Buxoro viloyatida tarixiy meros obyektlari, ziyoratgohlar, hunarmandlik, gastronomiya va madaniy tadbirlar yagona sayyohlik yo‘nalishi sifatida birlashtirilmoqda. Masalan, ziyorat turizmi doirasida Abduxoliq G‘ijduvoniy ziyoratgohida bo‘lgan sayyohlar G‘ijduvon tumanidagi Narzullayevlar kulollik markaziga tashrif buyurib, mahorat darslarida ishtirok etishi, shuningdek, gastronomik turizm yo‘nalishida mashhur G‘ijduvon kabobidan bahramand bo‘lishi mumkin.

Kelayotgan sayyohlar geografiyasida ham o‘zgarishlar kuzatilayotir. Eng katta sayyohlar oqimi, avvalo, qo‘shni davlatlar hisobiga shakllanyapti. 2026-yilning olti oyida qo‘shni davlatlardan 1 million 87 ming sayyoh kelib, umumiy xorijlik sayyohlar oqimining qariyb 69 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, Yevropaning Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi davlatlaridan 49,2 ming, Osiyo davlatlaridan esa 72,5 ming sayyoh kelishi hudud jozibadorligidan dalolat beradi.

Sayyohlar vaqtini mazmunli tashkil qilish va hududda bo‘lish muddatini uzaytirish maqsadida har yili 20 dan ortiq festival, ko‘rgazma va yarmarka tashkil etilib kelinyapti. Jumladan, 2025-yil 5-sentabrdan boshlanib 20-noyabrga qadar davom etgan Buxoro I xalqaro zamonaviy san’at biyennalesi 40 ta mamlakatning 65 dan ortiq mashhur rassom va usta ijodkorini bir yerda jamladi. Ular tomonidan muntazam ravishda mahorat darslari, ilmiy-ma’rifiy suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazildi.

2026-yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatga 2 million 608 ming 300 xorijlik sayyoh tashrif buyurib, ularga ko‘rsatilgan xizmatlar orqali turizm eksporti 745,2 million dollarga yetkazildi. Bu raqam Buxoroda sayyohlar oqimi yuqori darajaga chiqqani, yangi xorijiy bozorlar o‘zlashtirilayotgani va viloyatning xalqaro turistik xaritadagi mavqei mustahkamlanayotganini anglatadi.

Turizm sohasini barqaror rivojlantirishda joylashtirish vositalari o‘rni va ahamiyati beqiyos. Zero, sayyohning hududda qancha vaqt qolishi, safaridan olgan taassuroti va xizmatlardan qoniqish darajasi ko‘p jihatdan unga ko‘rsatiladigan mehmonxona va boshqa joylashtirish xizmatlari sifatiga bog‘liq.

Buxoro viloyatida 2026-yil yakuniga qadar jami joylashtirish vositalari sonini 760 taga, o‘rinlar sonini esa 19,7 mingtaga yetkazish belgilangan. Hozirgi kunda Buxoroda mehmonxonalarning o‘rtacha bandligi 93 foizni tashkil etmoqda. 2028-yilda yangi Hyatt Regency Bukhara, Hotel Indigo Bukhara (IHG tarmoqlari), InterContinental Hotels Group (IHG) brendi ostida mehmonxonalar ochilishi rejalashtirilgan.

259 ta turoperator va turagentning faoliyati raqobatni kuchaytirib, sayyohlarga tanlov imkoniyatini kengaytiryapti. Bu kompaniyalar ekskursiya, ziyorat, gastronomik va madaniy turlar kabi turli mahsulotlarni taklif qilayotir. Masalan, Jondor tumanining Ushot turizm qishlog‘i, Shofirkon tumanida Xoja Orif turizm qishloqlarida sayyohlar oqimi ortib, tur yo‘nalishlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Oxirgi 10 yilda tadbirkorlar tomonidan 679 ta joylashtirish maskani (shu jumladan, 258 ta mehmonxona va 345 ta oilaviy mehmon uyi) tashkil etildi. Xizmatlar yaxshilanishi ortidan yiliga 2,7 million xorijlik va 4,8 million mahalliy sayyoh kelishiga erishildi. Viloyatda xizmat ko‘rsatish hajmi 14 foiz o‘sdi. Natijada minglab aholining bandligi ta’minlandi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida Buxorodan 1 milliondan ortiq aholining boshqa hududlarga sayohat qilgani ichki turizmning ikki tomonlama iqtisodiy jarayonga aylanayotganini ko‘rsatadi. Mahalliy aholi uchun turizm madaniyatini oshirish va mamlakat bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytirish hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan e’tiborga molikdir.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoroga 4,6 milliondan ortiq mahalliy sayyoh kelgani hududning ichki turizmda muhim va jozibador markazlardan biri ekanidan dalolatdir. Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, milliy madaniyat va gastronomiya mahalliy sayyohlarni jalb qilmoqda. Ayniqsa, Yetti pir ziyoratgohlariga ularning qiziqishi katta.

Viloyat uchun ziyorat, etnoturizm va gastroturizm eng katta iqtisodiy istiqbolga ega. Masalan, zardo‘zlik va zargarlik bilan shug‘ullanadigan mahalliy hunarmandlar mahsulotlari sotuvi va milliy brend hisobiga joriy yil viloyatda xizmat ko‘rsatish hajmi o‘sgani sayyohlarda etnoturizmga qiziqish katta ekanini ko‘rsatadi.

Mavsumiylikni kamaytirish uchun Buxoroda yil bo‘yi ishlaydigan Yetti pir ziyorat turizmi majmuasi va xalqaro tadbirlar kengaytirilmoqda. Yoz oylari uchun Devxona ko‘li va “Jayron” ekomarkazida safari turizm maskanlari ko‘payayotgan bo‘lsa, kechki va tungi vaqtlarda turistik obyektlar faolligini oshirish maqsadida madaniy meros obyektlarida “Tungi muzey” va “Kechki ekskursiya” dasturlari muntazam yo‘lga qo‘yildi. Tarixiy markazdagi bosimni kamaytirish uchun esa eski shahardan tashqarida 32,6 gektar maydonda yangi Xalqaro turizm markazi barpo etilmoqda. Sayyohlar oqimini viloyat bo‘ylab tarqatish maqsadida Romitanda daryo bo‘yi ekoturistik maskani, Qorako‘lda Poykent arxeologik parki hamda Peshkuda Ibn Sino merosiga bag‘ishlangan “Afshona” turistik klasteri tashkil etilib, oqim tumanlarga yo‘naltiriladi.



Akmaljon RAJABOV, Buxoro viloyati turizm boshqarmasi boshlig‘i

Turizm rivoji va tarixiy meros muvozanati UNESCO standartlari hamda moliyaviy va texnologik cheklovlar asosida ta’minlanadi. Masalan, Buxoroning tarixiy markaziga tushadigan yukni kamaytirish uchun barcha yirik qurilishlar eski shahardan tashqaridagi 32,6 gektar yangi hududga ko‘chirildi va qadimiy obidalar atrofida transport harakati cheklandi. Tarixiy binolarni asrash uchun mahalliy byudjet va xususiy sektor mablag‘lari hisobidan restavratsiya ishlariga millionlab dollar investitsiya yo‘naltiriladi.

Cho‘pon bizni yashash joyi va xo‘jaligi bilan tanishtira boshladi. Uyda o‘rnatilgan quyosh panellari, suv ta’minoti uchun yaratilgan sharoit, chorva saqlanadigan katta qo‘ton — bularning har biri alohida e’tiborga molik edi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 31-oktabr, 226-son

Yo‘l ocherki

Bugunning cho‘poni



Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Odam biror manzilga yo‘l olar ekan, o‘zi bilan birga o‘sha joy haqidagi tasavvurlarini ham olib boradi. Hali ko‘rmagan manzaralarini xayolida gavdalantiradi, uchratmagan odamlari qiyofasini tasavvur qiladi, hatto ularning qanday yashashi, nima bilan mashg‘ul bo‘lishigacha o‘zicha xulosa chiqaradi. Buning ajablanarli joyi yo‘q. Inson dunyoni faqat o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlari orqali emas, boshqalardan eshitganlari, kitoblardan o‘qiganlari, bolaligidan ongiga singib qolgan tushunchalar orqali ham taniydi. Shuning uchun biz hali uchratmagan odamimiz haqida ham muayyan fikrga ega bo‘lishimiz mumkin.

Biroq bunday tasavvurlarning bir nozik jihati bor: ularning hammasi ham shaxsiy tajribaga asoslanmaydi. Ayrimlarini ota-onamizdan, ayrimlarini jamiyatdan qabul qilamiz. Kimnidir kasbiga, kimnidir yashash joyiga, yana kimnidir tashqi ko‘rinishiga qarab baholashga odatlanamiz. Masalan, “kimyogar olim”, “tadbirkor”, “artist” yoki “cho‘pon” degan so‘zlarni eshitishimiz bilan xayolimizda bir-biridan farqli qiyofalar paydo bo‘ladi. Ularning har biriga o‘zimiz bilgan yoki bilgan deb o‘ylagan turmush tarzini ham bog‘laymiz.

Ayniqsa, asrlar davomida deyarli o‘zgarmaganday tuyuladigan mashg‘ulotlar haqida so‘z ketganda bu holat yaqqol seziladi. Chorvachilik shulardan biri. Qo‘y boqish, yaylov izlash, mol-holning parvarishi bilan shug‘ullanish kecha paydo bo‘lib qolgan yumush emas. Bu mehnatning tabiatga bog‘liq jihatlari bugun ham saqlanib qolgan. Lekin mashg‘ulotning mohiyati o‘zgarmagani uni bajarayotgan odamning hayoti avvalgidek qolganini anglatmaydi. Zamon yangiliklari bir kasb mazmunini butunlay almashtirmasdan ham uning sharoitini, imkoniyatlarini va iqtisodiy ahamiyatini o‘zgartirishi mumkin ekan. Bunga o‘zimiz guvoh bo‘ldik.

Xo‘sh, cho‘pon deganda ko‘z oldingizga qanday odam keladi?

Tabiiyki, ko‘pchilikning xayolida bir-biriga o‘xshash manzara gavdalanadi. Quyoshda qoraygan yuz, o‘sib ketgan soch-soqol, egniga eski, uvadasi chiqqan kiyim ilgan, qo‘lida allambalo tayoq tutgan, bir qarashda sahro badaviylarini yodga soluvchi sirli bir kishi. Atrofida suruv, yonida sodiq iti, boshpanasi esa cho‘lning bir chekkasidagi pastqam kulba. Uning hayotini tasavvur qilganda ham ko‘proq mashaqqat, yolg‘izlik, jazirama issiq va qahraton sovuq haqida o‘ylaymiz.

Albatta, bu obraz o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Uning zamirida o‘tmishdagi cho‘ponlik turmushi, adabiyot va san’atdagi tasvirlar, katta avlodning xotiralari bor. Ammo o‘sha tasvirlardagi cho‘pon bilan bugun cho‘lda mehnat qilayotgan inson o‘rtasida qanchalik farq bor? Biz hozir ham cho‘ponni uning kechagi qiyofasi bilan baholayotganimiz yo‘qmi?

Muammo shundaki, cho‘ponlik haqidagi tasavvurimizda kasbning mohiyati bilan uning og‘ir turmush sharoitini bir-biriga aralashtirib yuborganmiz. Go‘yo cho‘pon bo‘lish uchun albatta xarob, to‘kilib tushay degan chaylada yashash, juldur ust-boshda yurish, zamonaviy qulayliklardan mahrum bo‘lish kerakdek. Holbuki, bular kasbning ajralmas belgisi emas, muayyan davrning sharoiti edi.

Buxoroga, O‘rtacho‘lga safarimiz ana shu odatiy tasavvurlarimizga jiddiy tahrir kiritdi.

Safarimizdan ko‘zlangan maqsad aniq edi: viloyatda so‘nggi o‘n yilda yuz bergan o‘zgarishlarni odamlar hayoti misolida o‘rganish, turmushi, mehnati va bugungi imkoniyatlari haqida yozish. Rasmiy ma’lumotlar, hisobotlar va raqamlar bilan tanishishning o‘zi kifoya qilmasdi. Chunki har qanday o‘zgarishning odamlar hayotiga qanchalik ta’sir qilganini bilish uchun ular bilan suhbatlashish, kundalik yumushlarini kuzatish, yashash sharoitini o‘z ko‘zing bilan ko‘rish muhim.

Safar davomida viloyatning turli hududlarida bo‘lishni rejalashtirgandik. Shulardan biri — O‘rtacho‘l. Bu yerda chorvachilik bilan shug‘ullanadigan cho‘ponning hayoti bilan yaqindan tanishmoqchi edik. Uning bir kuni qanday o‘tishi, ro‘zg‘orini nimaning hisobidan tebratishi, cho‘pon bo‘lishning qiyinchiliklari, bugungi daromadi va kelajak rejalari bizni qiziqtirardi. Ayniqsa, cho‘lda yilning to‘rt faslini o‘tkazadigan odam uchun zamonaviy qulayliklar qay darajada ahamiyat kasb etishini bilmoqchi edik.

Buxoro shahri ortda qolib, manzilimizga yaqinlashganimiz sari yo‘l atrofidagi manzara o‘zgarib bordi. Aholi yashash joylari siyraklashdi. Hadsiz kengliklar boshlandi. Cho‘lning o‘ziga xos sukunati, uzoq-uzoqlarga cho‘zilgan tekisliklar, onda-sonda ko‘zga tashlanadigan chorva suruvlari... Bunday joyda yashash uchun odamdan qanchalik sabr, mehnat va matonat talab etilishini tasavvur qilish qiyin emas.

Yo‘lda ketayotib, uchrashadigan cho‘ponimiz haqida o‘yladim. Suhbatni nimadan boshlash, qaysi savollarga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini xayolimdan o‘tkazdim. Chorvachilikdagi xarajatlar, yem-xashak, suv ta’minoti, bozorga chiqish imkoniyatlari haqida so‘rash niyatim bor edi. Zero, yetti yuz boshga yaqin qo‘yni boqishning o‘zi kichik xo‘jalikni boshqarish bilan barobar. Buning ortida muayyan hisob-kitob, tajriba va kundalik tashvishlar turishi aniq.

Nihoyat, manzilga yetib keldik. Birinchi e’tiborimni tortgan narsa cho‘ponning yashash joyi bo‘ldi. Biz ko‘rishga odatlangan kulba o‘rnida xonalari bor, tartib bilan jihozlangan shinam uy turardi. Bu yerda odam faqat tunab chiqishi uchun sharoit qilinmagan. Kundalik yashash, dam olish, ro‘zg‘or yuritish uchun zarur qulayliklar ko‘zda tutilgan. Atrofdagi xo‘jalik inshootlari ham bu yerda ish ancha keng ko‘lamda tashkil etilganini ko‘rsatib turardi.

Uch-to‘rt kishi kutib oldi. Shular orasida cho‘ponning o‘zi bilan so‘rashib o‘tganimizni payqamadik ham. Shu kishi cho‘pon deb tanishtirishgach, hammamiz hayrat bilan unga tikildik. Egnida ozoda kiyim, tashqi ko‘rinishi saranjom-sarishta. Qorachadan kelgan deb ham bo‘lmaydi. Yaxshi avtomobili bor. O‘zini tutishida ishini biladigan, xo‘jaligidan xabardor odamga xos xotirjamlik sezilardi. U bilan suhbatni nimadan boshlashni o‘ylab kelgan bo‘lsam, endi savollarimning yo‘nalishi o‘zgara boshlagandi. Men uning qanday qilib shunday xo‘jalik barpo etganini bilmoqchi edim.

Cho‘pon bizni yashash joyi va xo‘jaligi bilan tanishtira boshladi. Uyda o‘rnatilgan quyosh panellari, suv ta’minoti uchun yaratilgan sharoit, chorva saqlanadigan katta qo‘ton — bularning har biri alohida e’tiborga molik edi. Eng qizig‘i, cho‘lning o‘rtasidagi bu xo‘jalikda zamonaviy texnika va elektron qurilmalar ham kundalik turmushning bir qismiga aylangan.

Bu manzarani ko‘rib, cho‘ponlikning bugungi iqtisodiy imkoniyatlari haqida jiddiyroq o‘ylay boshladim. Axir bu yerda yetti yuzga yaqin qo‘yni parvarishlayotgan, suv va elektr ta’minotini yo‘lga qo‘ygan, yashash sharoitini o‘z ehtiyojlariga moslab tashkil etgan inson bilan suhbatlashib turardik. Uning xo‘jaligi qanday boshqarilishi, qancha mehnat va mablag‘ talab etishi, yil davomida qanday natija berishi haqida bilishga arziydigan jihatlar ko‘p edi.

Ayniqsa, suv masalasiga alohida qiziqdim. Cho‘lda chorva boqadigan odam uchun suvning ahamiyatini tushuntirish ortiqcha. Shuncha qo‘yning kundalik ehtiyojini qondirish uchun doimiy suv manbai zarur. Bu yerda esa cho‘pon o‘z xo‘jaligi uchun suv chiqargan, undan chorvasini sug‘orishda ham, ro‘zg‘or ehtiyojlarida ham foydalanadi. Bunday ta’minotni yo‘lga qo‘yishning o‘zi yaxshigina mablag‘, texnik yechim va keyingi xarajatlarni hisobga olishni talab qiladi.

— 2005-yilda chorvani otamdan qabul qilib olganman, — deydi Bahriddin aka Hafizov qo‘ton tomon yurarkan. — U paytlarda hozirgidek sharoit qayerda edi? Suv topishning o‘zi bir tashvish, qo‘yni boqish bir tashvish. Qishda o‘ta sovuq, yozda jazirama issiq. Otam chorvaning tilini tushunardi. Qo‘yning yurishiga qarab, ahvolini aytib berardi. Qaysi biri kasal bo‘lyapti, qaysi biri qo‘zilashga yaqin, qaysi yaylovda qancha turish kerak — hammasini bilardi. Men ko‘p narsani undan o‘rganganman. Lekin otamning ishini oldim degani uning yashash tarzini

Buxoroga so‘nggi o‘n yildagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun kelgandik. O‘rtacho‘lda esa bu o‘zgarishlarning bir inson hayotidagi ifodasini ko‘rdik: odamning turmushi o‘zgarganini uning uyi va mashinasidan bilish mumkin, tafakkuri o‘zgarganini esa orzu-maqsadlaridan.

ham o‘zgarishsiz davom ettirishim kerak degani emas-ku?! Shuncha yil mehnat qilib, ro‘zg‘orimni yaxshilamasam, topganimni nimadan qizg‘anib yuribman!?

Uning gaplarida e’tiborimizni tortgan jihat cho‘ponlikka oddiy tirikchilik manbai sifatida qaramasligi edi. Bahriddin aka suruvni ko‘paytirish, chorvaga sharoit yaratish, xarajatni kamaytirish haqida xuddi o‘z korxonasi ishlarini tushuntirayotgan tadbirkordek so‘zlardi.

— Odamlar yetti yuzta qo‘yingiz bor ekan deb hisobini qiladi. Lekin qo‘y degani sandiqqa solib qo‘yilgan pul emas. Har kuni yeydi, suv ichadi, kasal bo‘ladi, bolalaydi. Bitta kasallikka beparvo qarasangiz, butun suruvga yuqishi mumkin. Qo‘zilash paytida esa kechasi bilan uxlamaydigan kunlarimiz bo‘ladi. Bozorga ham qarash kerak. Qachon sotish foydali, qaysi qo‘yni naslga qoldirish kerak, qaysi paytda xarajat ko‘payadi — bularni hisoblamasangiz, yetti yuzta qo‘yingiz bo‘lsa ham topganingiz qayoqqa ketganini bilmay qolasiz. Men chorvani ko‘paytirishdan oldin uni qanday boqishni o‘ylayman. Chunki qo‘yning soni ko‘p bo‘lgani bilan parvarishi yaxshi bo‘lmasa, foydasi yo‘q.

Undan otasidan qolgan kasbni o‘g‘li davom ettirishi haqida so‘radik. Savolimizga kutilmagan javob oldik.

— Yo‘q, o‘g‘limni cho‘pon qilmoqchi emasman. O‘qitaman. Qo‘limdan kelsa, yaxshi universitetlarda o‘qisin, til o‘rgansin, dunyoni ko‘rsin. Ishimni davom ettirishga ulguradi. Avval bilim olsin. Qizig‘i, o‘g‘limni shu paytgacha O‘rtacho‘lga biror marta olib kelmaganman. Bu yerga kelsa, uyimizni ko‘radi, qo‘ylarimizni ko‘radi. Otam o‘qimasdan ham shunday yashayapti-ku, menga o‘qishning nima keragi bor deb o‘ylab qolishidan qo‘rqaman.

Suhbat davomida Bahriddin akadan cho‘ponlikning bizga noma’lum jihatlarini so‘radik. Avvalo, ko‘pchilik tasavvurida cho‘ponning ajralmas buyumiga aylangan tayoq haqida.

— Tayoqni odamlar cho‘ponning belgisi deb biladi. Aslida, u ish quroli. Qo‘yni haydashda, suruvdan ajralib qolganini qaytarishda, notekis joyda yurishda kerak bo‘ladi. Cho‘pon tayog‘iga doir ko‘plab gaplar hozir eskirgan. Shunday bo‘lsa ham, aytay. Ilgari cho‘ponlarning odatda har birida bittadan cho‘pon tayog‘i bo‘lib, uni olish sharafiga har kim ham musharraf bo‘lmagan. Cho‘pon o‘z tayog‘ini o‘g‘liga yoki ishongan shogirdi (cho‘lig‘i)ga topshirgan. Cho‘pon tayog‘i asosan gujum, tut, tol kabilardan yasalgan. Cho‘pon tayog‘ining uzunligi 18-20 bo‘g‘imdan iborat bo‘lgan. Yoshi ulug‘ cho‘ponlarning so‘zlariga qaraganda, hatto cho‘ponning tayog‘i tekkan bo‘ri ham ko‘p o‘tmay jon bergan. Tayoqning ustidan sakrash va uni sindirish qat’iyan man etilgan. Ya’ni tayoq cho‘ponlar orasida o‘ziga xos ahamiyatga ega buyum, himoya quroli sifatida qadrlangan. “Cho‘pon to‘yi” deb ataladigan marosim bo‘lgan deyishadi. Mazkur marosimda shogird ustozi oldida mashaqqatli vazifani o‘z zimmasiga olganining isboti sifatida tayoqni yerga qo‘yib, uning ustidan uch marta sakragan. “Agar cho‘ponlik tartib-qoidalariga bo‘ysunmasam, tayoqday quriy”, deya qasamyod qilgan. “Cho‘pon to‘yi”da asosan cho‘ponning qarindoshlari va keksa cho‘ponlar ishtirok etgan. Shogird yigit ko‘pchilik oldida ustoz cho‘pondan tayoqni qabul qilib olgan…

Suhbatimiz yaylovdagi o‘simliklarga ko‘chdi. Bahriddin aka cho‘lning o‘ziga xos o‘simlik dunyosi haqida ishtiyoq bilan gapira boshladi.

— Sizlar bu yerga qarab, qo‘ylar nima yeydi deb o‘ylashingiz mumkin. Lekin cho‘lni bilgan odam uning o‘tiga ham boshqacha qaraydi. Biz tomonlarda qo‘y yeydigan yigirmadan ortiq turdagi o‘simlik bor. Ular orasida shifobaxsh xususiyati bilan tanilganlari ham uchraydi. Har birining o‘sish vaqti, qo‘yga yoqadigan mavsumi bor. Qo‘y ham hamma o‘tni bir xil yemaydi. Birini bahorda yaxshi yeydi, boshqasini kuzda. Shu o‘tlarni yeb yurgan qo‘yning go‘shti o‘zgacha bo‘ladi. Biznikini olib ketganlar mazasiga alohida baho beradi.

— Xaridorlaringiz asosan qayerdan keladi?

— Buxoroning o‘zidan ham olishadi, boshqa viloyatlardan ham. Qashqadaryodan, Samarqanddan, Toshkentdan keladiganlar bor. Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikistondan xaridorlarimiz bo‘ladi. Bir marta olib ketib, keyin yana murojaat qiladiganlari bor. Bizda xaridor bilan ishlashning o‘z qoidasi mavjud. Qo‘yni sotdingizmi, tamom deb bo‘lmaydi. Odam sizdan yaxshi mol olsa, keyin yana keladi. Shuning uchun sotadigan chorvamizning holatiga alohida qaraymiz.

— Yaxshi cho‘pon bo‘lish uchun nima kerak?

— Avvalo, kuzatuvchan bo‘lish kerak. Qo‘yning ko‘ziga qarab ham ba’zi narsalarni payqaysiz. Harakati sustlashsa, boshqalardan ajralib qolsa, sababini qidirasiz. Lekin har qanday belgini ko‘rib, o‘zboshimchalik bilan davolash to‘g‘ri emas. Veterinar bilan maslahatlashamiz. Keyin cho‘pon yerni bilishi kerak. Yaylovning qaysi qismida o‘t yaxshi, qayerida suv bor, qaysi yo‘l xavfsiz — bularni o‘rganishga yillar ketadi. Otam bilan yurgan paytlarimda bir joyni ko‘rsatib, bu yerga falon oyda kelamiz derdi. O‘shanda tushunmasdim. Keyin bilsam, o‘tning o‘sishi, yerning holati, hatto shamolning yo‘nalishigacha hisobga olar ekan.

Uning gaplaridan keyin cho‘lga yana bir bor nazar tashladim. Uzoqdan qaraganda bir xil ko‘rinadigan yer maydoni Bahriddin aka uchun turli xususiyatlarga ega hududlardan iborat edi. U qayerda qanday o‘simlik o‘sishini, qaysi joyda chorvaga qulay sharoit borligini, qaysi yo‘nalishda yurish maqbulligini biladi. Bu bilimning katta qismi yillar davomida to‘plangan tajriba mahsuli.

— O‘g‘lingizga bu yerdagi mehnatingizni ko‘rsatmaslikka harakat qilar ekansiz. Lekin u otasining nima ish qilishini biladi-ku?

— Biladi. Men undan ishimni yashirmayman. Faqat bu yerga olib kelmaganman. Cho‘ponlikni faqat tayyor xo‘jalik, mashina, uy, pul bilan bog‘lab qo‘yishini xohlamayman. Hozir o‘qishi kerak. Kitobini o‘qisin, til o‘rgansin. Ba’zan mendan biror narsa so‘raydi, javobini bilmay qolaman. Shunda bilimning qadrini yanada yaxshi tushunaman. Men tajribam bilan ko‘p ishni uddalayman. Lekin dunyoda men bilmaydigan narsalar qancha? O‘g‘lim mendan ko‘proq bilsin deyman.

Hovliga qaytgach, Bahriddin aka bizni uyiga taklif qildi. Cho‘l o‘rtasidagi bu xonadonning ichki ko‘rinishi e’tiborimizni tortdi. Maishiy texnika, televizor, internetga ulangan qurilmalar — shahar xonadonlarida ko‘rishga o‘rgangan buyumlarimiz shu yerda ham bor.

— Avvaliga generator ishlatardik. Yoqilg‘i kerak, ta’miri bor, ovozi bor. Keyin quyosh panellari haqida surishtirdim. Hisoblab ko‘rsam, bizga ma’qul keladigan tomonlari ko‘p. O‘rnatdik. Endi kundalik ehtiyojimizning bir qismini shu orqali ta’minlaymiz. Quyosh paneli o‘rnatdim degani hamma muammo hal bo‘ldi degani emas. Akkumulyatoriga, quvvatiga, uskunalar holatiga qarash kerak. Lekin ancha yengillik bo‘ldi.

— Cho‘lda yashash uchun bunchalik sharoit qilish shartmidi? Axir ko‘pchilik cho‘ponning oddiy kulbada yashashiga o‘rgangan.

— Nega shart bo‘lmas ekan? Men ham odamman-ku. Kun bo‘yi ishdan keyin toza joyda ovqatlangim, yaxshi dam olgim keladi. Oilam kelsa, qiynalmasin deyman. Odam o‘z uyiga sharoit qilishni istasa, qayerda yashashining nima ahamiyati bor? Bu yerda ham umrim o‘tyapti. Bir yil, ikki yilga kelib qolganim yo‘q. Shuning uchun uyimni ham, xo‘jaligimni ham o‘zimga qulay qilib olganman.

— Cho‘l sizga nimani o‘rgatdi?

— Shoshilmaslikni. Ayniqsa, chorvachilikda natijani bir kunda ko‘rmaysiz. Bugun qo‘zi tug‘iladi, uni boqasiz, katta qilasiz. Yaxshi nasl olish uchun yillab ishlaysiz. Quduq qazdirsangiz ham, uy qursangiz ham xarajatini bir kunda qoplamaysiz. Shuning uchun har ishni o‘ylab qilishga o‘rganganman. Yana odamning va’dasida turishi muhim. Bir odamga qo‘y sotaman dedingizmi, kelishuvga amal qilish kerak. Bozorda ishonch yo‘qolsa, keyin uni tiklash qiyin.

— Yigirma bir yil avvalgi o‘zingizga bitta maslahat berish imkoni bo‘lsa, nima derdingiz?

— Ilm o‘rgan derdim. Chorvachilikni ham chuqurroq o‘rgan. Hisob-kitobni yaxshi bil. Til o‘rgan. Boshqa mamlakatlarda chorvachilik qanday rivojlanganini ko‘r. Men yoshligimda ko‘proq otamdan o‘rganganlarimga tayanganman. Buning foydasi katta bo‘lgan. Lekin hozir tushunyapmanki, tajribaning yoniga bilim qo‘shilsa, ish ancha yaxshi bo‘lar ekan. Shuning uchun o‘g‘limning o‘qishini xohlayapman-da.

Uning bu javobida dastlabki suhbatimizda aytgan fikrlarining sababi yanada aniqroq namoyon bo‘ldi. Bahriddin aka o‘g‘lini o‘qitishga intilayotganini o‘z hayoti davomida bilimning ahamiyatini anglab yetgani bilan izohlardi.

Kun davomida Bahriddin akaning ish tartibi, xo‘jaligi va oilasi haqida ancha suhbatlashdik. Uning javoblarida ba’zan hazil, ba’zan hisob-kitob, ba’zan esa otasi bilan bog‘liq xotiralar aralashib ketardi. Bir savolga javob qaytarayotib, qo‘ylarning ahvolini so‘rab qo‘yar, boshqa savol o‘rtasida ishchilaridan biriga topshiriq berardi. Bu yerda suhbat uchun alohida ajratilgan vaqt ham kundalik ishlardan butunlay xoli emasdi.

Bahriddin aka Buxoroda yana qayerlarga borishimizni so‘radi. Safar rejalarimiz haqida bir oz suhbatlashdik, samimiy mehmondorlik uchun minnatdorlik bildirdik. Qaytar ekanmiz, xayolimdan bir savol o‘tardi: bugungi cho‘ponning hayotidagi eng katta o‘zgarish nima? Cho‘l o‘rtasidagi shinam uymi, quyosh panellari yoki yaxshi avtomobilmi? Bularning barchasi, shubhasiz, farovonlik belgisi. Biroq Bahriddin akaning o‘g‘li haqidagi gaplari ulardan ham ko‘proq o‘ylantirdi. Otasidan cho‘ponlikni meros olgan inson o‘z farzandiga, avvalo, bilim berishni istayapti. Hatto bu yerdagi to‘kinchilik uning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini susaytirishidan xavotirda.

Buxoroga so‘nggi o‘n yildagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun kelgandik. O‘rtacho‘lda esa bu o‘zgarishlarning bir inson hayotidagi ifodasini ko‘rdik: odamning turmushi o‘zgarganini uning uyi va mashinasidan bilish mumkin, tafakkuri o‘zgarganini esa orzu-maqsadlaridan. Bahriddin aka bugungi hayotidan rozi. Ammo farzandi kelajagini o‘zining bugungi imkoniyatlari bilan chegaralashni ham xohlamaydi.

Uchrashuvdan olgan eng muhim taassurotimiz shu bo‘ldi. Zero, taraqqiyotning haqiqiy ko‘lami faqat odamlar nimalarga erishgani bilan emas, endi nimalarga intila boshlagani bilan ham o‘lchanadi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.